

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 616.62-053-089: 616.8-009.6-072.7

ABDIYEV BEKZOD RIZVANOVICH

**BOLALARDA URETRA ORQA KLAPANINI ERTA JARROHLIK
DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

14.00.35 – Bolalar xirurgiyasi

Dissertatsiya
Tibbiyot fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar:
tibbiyot fanlari doktori
Agzamxodjayev S T

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Qisqartmalar ro'yxati.....	4
Kirish.....	5
I BOB. BOLALARDA URETRA ORQA KLAPANI DIAGNOSTIKASI VA DAVOLANISHINING ZAMONAVIY JIHATLARI.....	15
§ 1.1. Uretra orqa klapanini antenatal diagnostika qilish.....	15
§ 1.2. Bolalarda uretra orqa klapanini erta davolash.....	19
§ 1.3. Uretra orqa klapanini jarrohlik yo'li bilan davolash	23
1.3.1. Endoskopik ablatsiya/kesish	23
1.3.2. UOK nida bemorlarda siydik derivatsiyasini ta'minlash	24
§ 1.4. Vezikostomiya va pufakdan yuqori siydik derivatsiyasi usulining taqqoslanishi	26
1.4.1. Siydik pufagi bo'yni kesmasi (SPBK).....	29
1.4.2. UOK nida bemorlarda siydik pufagini rekonstruksiya qilish	30
I-bob bo'yicha xulosalar	31
II BOB. URETRA ORQA KLAPANI DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASHIDA QO'LLANILGAN MATERIALLAR VA USULLAR.....	33
§ 2.1. Bemorlarning klinik tavsifi	33
2.1.1. Yosh va davolash guruhlari bo'yicha tahlil	35
§ 2.2. Tadqiqot usullari	36
2.2.1. Klinik tekshiruv	36
2.2.2. Laborator tekshiruv usullari.....	36
§2.3. Instrumental tekshiruv usullari	36
2.3.1. Ultrasonografik tekshiruv usullari	36
2.3.2. Ekskretor urografiya	38
2.3.3. Multispiral kompyuter tomografiyasi	38
2.3.4. Miksion sistoureterografiya	39
2.3.5. Radioizotop nefrosintsigrafiya	40
2.3.6. Endoskopik tekshiruv usullari	40
§2.4. Davolash va kuzatuv usullari	41
§2.5. Tadqiqot natijalarini baholash	41
§ 2.6. Statistik tadqiqot usullari	42
II bob bo'yicha xulosalar.....	42

III BOB. BOLALARDA URETRA ORQA KLAPANINI JARROHLIK DAVOLAH USULINI DIFFERNTSIYAL YONDASHUVNI MAQSADGA MUVOFIQLIGINI PATOGENEZ ASOSIDA YORITISH.....	44
§ 3.1. Antenatal belgilarning jarrohlik tuzatish usulini tanlashga ta'siri	44
§ 3.2. Uretra orqa klapanida jarrohlik davolash usulini tanlash asoslari	48
§3.3. Uretra orqa klapanida (UOK) klinik, laborator va instrumental tekshiruv natijalari.....	52
III-bob bo'yicha xulosalar.....	64
IV BOB. BOLALARDA URETRA ORQA KLAPANIDA (UOK) JARROHLIK DAVOLASH.....	66
§4.1. Jarrohlik davolash usullari	66
4.1.1 Klapan ablatsiyasigacha siydik pufagini drenajlash.....	66
4.1.2. Uretra orqa klapanining transuretral ablatsiyasi.....	67
§4.2. UOK bo'lgan bolalarda siydik derivatsiyasi.....	74
4.2.1. UOK bo'lgan bolalarda vezikostomiya usuli bilan siydikni derivatsiyasining natijalari.....	74
4.2.2. UOK bo'lgan bolalarda ureterostomiya yo'li bilan siydik derivatsiyasi natijalari.....	78
4.2.3. UOK bo'lgan bolalarda Double J stent o'rnatish orqali siydik derivatsiyasi natijalari.....	81
§ 4.3. UOK bo'lgan bolalarda jarrohlik davolash samaradorligini baholash.	85
4.3.1. Dastlabki operatsiya muvaffaqiyati va takroriy aralashuvlar zarurati.	86
4.3.2. Operatsiyadan keyingi asoratlarni uchrashi.....	87
IV-bob bo'yicha xulosalar.....	92
XOTIMA	94
XULOSALAR.....	100
AMALIY TAVSIYALAR.....	101
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	102

QISQARTMALAR RO‘YXATI

KA – klapan ablatsiyasi
VUR – Vezikoureteral reflyuks
SYI – Siydik yo‘llari infeksiyasi
UOK – Uretra Orqa klapani
MRT – Magnit-rezonans tomografiya
MSKT – Ko‘p spiralli kompyuter tomografiyasi
MTsUG – Miktsion sistoureterografiya
BMTM – Bolalr Milliy tibbiyot markazi
QSNR – Qovuq-siydik nayi reflyuksi
RShMP – Siydik pufagi bo‘yin qismiga kesma qo‘yish (bo‘yin kesmasi)
SGF – Glomerulyar filtrlash tezligi
SNMP – Quyi siydik yo‘llari funksiyasining pasayishi
StsG – Sintsigrafiya
ToshPMI – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
UTT – Ultratovush tekshiruvi
SBK – Surunkali Buyrak kasalligi
DJ-stent – Double J stent (ikki halqali ureteral stent)

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Xalqaro adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, "...uretra orqa klapanlari har 5000–8000 tirik tug'ilgan chaqaloqdan birida uchraydi va yangi tug'ilgan o'g'il bolalarda infravezikal obstruktsiyaning eng keng tarqalgan sababidir. Kam uchraydigan holat bo'lishiga qaramay, UOK bolalar nefrourologiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki uzoq muddatli istiqbolda bemorlarning uchdan biridan ko'prog'ida surunkali buyrak kasalligi, jumladan, uning terminal bosqichi rivojlanadi"¹. JSST ma'lumotlariga ko'ra, buyrak-tashqi chiqaruv tizimi tug'ma nuqsonlari chaqaloqlar o'limining asosiy o'nta sababidan biri hisoblanadi, UOK esa klinik oqibatlarining og'irligi bilan bu nuqsonlar orasida alohida o'rin egallaydi. Adabiyotlarda keltirilishicha, UOK bilan bolalarning 32–40% gacha keyinchalik buyrak funksiyasi sekin-asta pasayishidan aziyat chekishadi va muhim qismida buyrak yetishmovchiligining terminal bosqichi rivojlanib, buyrakni almashtiruvchi terapiya yoki buyrak ko'chirib o'tkazishni talab qiladi. Prenatal vizualizatsiya sohasidagi yutuqlarga, jumladan, homila UTT va MRT usullarining mavjudligiga qaramay, bu usullarning aniqligi va prognostik qiymati hali ham cheklangan. Bundan tashqari, siydikni vaqtincha chiqarib yuborish usullarining maqsadga muvofiqligi, klapanlarni endoskopik ablyatsiya qilish muddatlari hamda UOK bo'lgan bolalarda antixolinergik terapiya roli borasida hali ham bahslar davom etmoqda.

Klinik amaliyotda obstruktsiyaning og'irlik darajasi, vezikoureteral refluks mavjudligi va buyrak funksiyasi pasaygan holatlarda davolashning optimal taktikasini tanlash bilan bog'liq masalalar ochiq qolmoqda. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida bunday bemorlarni yuritish bo'yicha yagona bayonnoma yo'qligi antenatal va postnatal ma'lumotlar, siydik chiqaruv tizimi morfo-funksional bahosi hamda uzoq muddatli katamnestik kuzatuv asosida differensial yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Klapanlarni o'z vaqtida ablyatsiya qilishning imkoni bo'lmagan hollarda siydik derivatsiya usulini tanlash ham qo'shimcha muammo

¹ European Association of Urology (EAU) «Guidelines on Paediatric Urology», 2024r.

sanaladi: garchi siydikni derivatsiyasiga doir bir nechta jarrohlik usullari mavjud bo'lsa-da, hali ham samarali va xavfsiz drenajni ta'minlaydigan universal va kam invaziv metodika yo'q.

Yurtimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish Sog'liqni saqlash tizimini jahon standartlariga moslashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, pediatrik urologiyada ham erta diagnostika va asoratlarning oldini olish yo'nalishida sezilarli natijalarga erishildi. Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar doirasida "...onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatlarga kengroq kirishini ta'minlash, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloq va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks tadbirlarni kengroq amalga oshirish"² kabi vazifalar belgilangan bo'lib, bu kontekstda qator ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" 2022–2026 yillarga mo'ljallangan PF-60-sonli 2022-yil 28-yanvardagi farmoni, "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5124-sonli 2021-yil 25-maydagi farmoni, "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-sonli 2021-yil 28-iyuldagi farmoni va ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosiga qisman xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishinig ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasining ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari – VI. "Tibbiyot va farmakologiya" bandiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammo o'rganilganlik darajasi. Uretra orqa klapanlari (UOK) yangi tug'ilgan o'g'il bolalarda infravezikal obstruktsiyaning eng keng tarqalgan sabablaridan biri bo'lib, bolalikda surunkali buyrak kasalligining yetakchi sabablaridan biri hisoblanadi. Ko'plab klinik kuzatuvlar va ilmiy tadqiqotlarga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»

qaramay, UOKni erta aniqlash, davolash taktikasini tanlash va asoratlarning oldini olish muammosi hanuz dolzarb va bahsli bo'lib qolmoqda. Jahon ilmiy adabiyotlarida UOKning patogenezi, klinik xususiyatlari, diagnostika va davolash yondashuvlarini yorituvchi katta hajmdagi ma'lumotlar to'plangan. Urodinamik o'zgarishlar va "uretra orqa klapani" konsepsiyasini o'rganishda A. Puri muhim hissa qo'shgan bo'lib, u UOK bo'lgan bemorlarda miogen yetishmovchilikda antidepressant imipramin qo'llanishini ham tadqiq etgan.

J.T. Casey va muallifdoshlari (2012, J Urol) tadqiqotlarida yangi tug'ilgan chaqaloqlarda siydik pufagi elastikligini yaxshilash va uning qayta shakllanishining oldini olish maqsadida oksibutininni erta qo'llash samaradorligi ko'rsatilgan. A. Faure va hamkorlari (2017, Prenat Diagn) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa UOK bo'lgan homilalarda postnatal buyrak funksiyasini bashorat qilishda diffuzion-og'irlikdagi MRT va ADC koeffitsientining ahamiyati tasdiqlangan. O.M. Sarhan va boshqalar (2013) tadqiqotlarida antenatal diagnostikaning samaradorligi va uning nefrologik natijalarga ta'siriga bag'ishlangan ko'p markazli tadqiqotlar orqali UOKni erta aniqlash har doim ham SBK dan himoya qilmasligi isbotlangan. R.K. Morris va hammualliflar (2009; 2013), PLUTO trial doirasida olib borilgan tadqiqotda pastki siydik yo'llari obstruktsiyasining antenatal belgilarini tahlil qilgan va prenatal UTT usulining past spetsifikligini ko'rsatgan.

Siydik pufagi bo'yni ikkilamchi obstruktsiyasi, uning miogen yetishmovchilik bilan bog'liqligi, alfa-blokatorlar va siydik pufagi bo'ynini kesish (SPBK) qo'llanishi masalalariga P.A. Androulakakis, S. Keihani va boshqalar e'tibor qaratgan bo'lib, bunday aralashuvlarning uzoq muddatli natijalari, jumladan, fertillikka ta'siri ham tahlil qilingan.

Mahalliy va mintaqaviy urologik adabiyotlarda UOKning diagnostikasi va jarrohlik yo'li bilan davolanish masalalari ham o'rganilmoqda. O'zbekiston Respublikasida bolalarda UOKni davolash bo'yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda X.A.Akilov, S.T. A'zamxo'jayevlar muhim hissa qo'shgan bo'lib, ularning ishlari siydik derivatsiyasi yo'llari rivojlanish nuqsonlarini kompleks diagnostika qilish va siydikni derivatsiyasi usullarini

takomillashtirishga bag'ishlangan. Ko'plab tadqiqotlarga qaramay, ayni paytda UOKning turli klinik shakllari bo'lgan bemorlarni yuritish bo'yicha yagona algoritim mavjud emas. Bu esa, bolalarda siydik derivatsiyasi tizimining antenatal va postnatal ko'rsatkichlari, individual morfo-funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu muammoni yanada chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsion tadqiqot Toshkent pediatriya tibbiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan (2020–2024 yillar).

Tadqiqotning maqsadi. Bolalarda uretra orqa klapanini jarrohlik yo'li bilan davolash natijalarini erta diagnostika va siydik derivatsiyasi usullarini takomillashtirish orqali yaxshilash.

Tadqiqot vazifalari:

homilada uretra orqa klapanining kechishini UTT orqali o'rganib, bolani tug'ilishida xavf omillarini aniqlash;

siydik derivatsiyasining turli usullarining natijalarini taqqoslab, UOK bo'lgan bolalar uchun siydikni derivatsiyasi usullarini tanlashda differensial yondashuv ishlab chiqish;

UOK bo'lgan bolalar uchun siydik derivatsiyasining yangi modifikatsiyasini ishlab chiqish;

UOK bo'lgan bolalarning jarrohlik yo'li bilan davolanishining yaqin va uzoq natijalarini buyraklarning morfo-funksional holatini baholash asosida o'rganish.

Tadqiqot obyekti. 2018–2024 yillar davomida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Milliy bolalar tibbiyot markazining klinik bazalarida kompleks tekshiruvdan o'tgan va jarrohlik muolajasini olgan 120 nafar uretra orqa klapani (UOK) bilan tashhis qo'yilgan o'g'il bolalar.

Tadqiqot predmeti. Anamnez yig'ish, fizik tekshiruv (ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya), klinik simptomatika va holat dinamikasini baholash, siydik umumiy tahlili, qon biokimyoviy tahlillari (kreatinin, mochevina, elektrolitlar) orqali buyrak funksiyasi va yallig'lanish mavjudligini aniqlash.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan: prenatal va postnatal ultratovush tekshiruv, miksion tsistouretrografiya, ekskretor urografiya, MSKT, radioizotopli renografiya, tsistouretroskopiya, jarrohlik usullari (transuretral klapan ablyatsiyasi, vezikostomiya, ureterokutaneostomiya, Double J stent o'rnatish), hamda statistik metodlar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchi bor homiladorlik davrida uretra orqa klapanini (UOK) gumon qilish va chaqaloq tug'ilgandan so'ng to'g'ri davolash taktikasini belgilash imkonini beradigan prognostik ahamiyatga ega antenatal va postnatal exografik mezonlar aniqlangan va ularning kompleks tahlili o'tkazilgan;

bolalarda UOKning og'irlik darajasi, buyrak funksional holati, vezikoureteral reflyuks darajasi va bolaning yoshiga qarab siydik derivatsiyasi usullarini tanlashda differensial yondashuv ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

UOKning og'ir shakllarida davolash samaradorligini oshirish maqsadida doimiy drenajni ta'minlovchi, kam shikastlovchi va samarali bo'lgan Double J stentini o'rnatishning modifikatsiyalashgan texnikasi ishlab chiqilgan (patent № IAP 7813, 2024-yil);

UOK bo'yicha jarrohlik davolash natijalari, shu jumladan buyrak va siydik pufagi morfo-funksional holatidagi o'zgarishlar dinamikasi ultratovush dopplerografiyasi, miksion sistouretrografiya va radioizotopli ssintigrafiya orqali baholanib, SBK va urodinamik buzilishlarning rivojlanish xavf omillari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

buyrak va siydik pufagi funksional holatini hisobga olgan holda, uretra orqa klapanida (UOK) olalar uchun antenatal va postnatal diagnostika, vaqtinchalik siydik derivatsiyasini ta'minlash usulini tanlash va ablyatsiya muddatlarini aniqlashni o'z ichiga olgan differensial yuritish algoritmi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;

obstruksiya darajasi, anatomik xususiyatlar va asoratlar mavjudligiga qarab siydik derivatsiyasi taktikasi (vezikostomiya, ureterokutaneostomiya, Double J stent

qo'yish va b.) asoslab berildi, bu esa UOK bo'lgan yangi tug'ilgan bolalarda surunkali buyrak yetishmovchiligi rivojlanish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi;

klapanlarni zudlik bilan olib tashlash imkoni bo'lmagan holatlarda yuqori samaradorlikka ega va kam invaziv bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining foydali modelga oid patenti bilan himoyalangan (№ IAP 7813) siydik pufagini doimiy drenaj qilishning original usuli klinik amaliyotga joriy etildi;

davolashning yaqin va uzoq natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar UOK bo'lgan bolalarni dinamik kuzatish uchun ko'rsatmalar shakllantirishga va urodinamik buzilishlarning oldini olish hamda tuzatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi, bu esa rehabilitatsiya tadbirlarining samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan zamonaviy metodlar va yondashuvlarning mosligi, natijalarning nazariy bilimlar bilan uyg'unligi, o'tkazilgan tadqiqotlarning metodik asoslanganligi, bemorlar sonining yetarliligi, natijalarni zamonaviy va o'zaro to'ldiruvchi ultratovush, rentgen, jarrohlik va klinik-laborator tekshiruv usullari orqali statistik jihatdan ishlanganligi, hamda olingan natijalar mahalliy va xorijiy tajriba bilan taqqoslanib, xulosa va natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ilmiy ahamiyati - uretra orqa klapani (UOK)da antenatal va postnatal diagnostika mezonlarini chuqur tahlil qilish, vaqtinchalik siydik derivatsiyasi usullarini tanlashda differensial yondashuvni asoslash, shuningdek, bolalarda siydik derivatsiyasi tizimining funksional holatini baholashdan iborat. UOK bo'yicha siydik pufagini doimiy drenaj qilishning taklif etilgan usuli og'ir obstruktiv holatlarda kam invaziv jarrohlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Amaliy ahamiyati - UOK bo'lgan bemorlarni yuritish algoritmini ishlab chiqish va joriy etishda ifodalanadi. Bu algoritm erta diagnostikani, siydik derivatsiyasining individual usulini tanlashni, o'z vaqtida transuretral ablyatsiyani va zamonaviy instrumental metodlardan foydalangan holda dinamik kuzatuvni o'z ichiga oladi. Olingan natijalar davolash samaradorligini oshirish, asoratlar sonini kamaytirish va

bu og‘ir tug‘ma patologiyaga ega bolalarda uzoq muddatli nefro-urologik natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Bolalarda uretra orqa klapanini erta jarrohlik davolashni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

birinchi ilmiy yangilik - bolalarda UOKning antenatal va postnatal belgilariga kompleks tahlil o‘tkazish orqali prognostik ahamiyatga ega exografik mezonlarni aniqlash bo‘yicha taklif ilmiy jihatdan isbotlangan va “Bolalarda orqa uretra klapaniga zamonaviy tashxis va davolash usullarini qo‘llash” mavzusidagi uslubiy tavsiyalarga kiritilgan. Ushbu tavsiyalar ToshPTI Ilmiy kengashining 2024 yil 3 iyuldagi 03/298-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Taklif amaliyotga joriy etilgan: Surxondaryo viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 2024 yil 24 oktyabrdagi 228-t-sonli buyrug‘i va Qashqadaryo viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 2024 yil 20 noyabrdagi 11-t-sonli buyrug‘i asosida (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashning xulosasi asosida). *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:* UOKni erta tashxis qilish davolash taktikasiga o‘z vaqtida reja tuzish imkonini berdi va og‘ir asoratlar sonining kamayishiga olib keldi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:* Kasallikning kech bosqichlarida qimmatbaho tekshiruv usullariga bo‘lgan xarajatlar qisqartirildi, har bir bemor uchun o‘rtacha iqtisodiy tejamkorlik 960 000 so‘mni tashkil etdi. *Xulosa:* Ishlab chiqilgan antenatal va postnatal skriningning exografik mezonlari UOKni erta aniqlash aniqligini oshiradi va davolash taktikasiga o‘z vaqtida kirishish imkonini beradi, bu esa og‘ir asoratlar xavfini kamaytiradi.

Ikkinchi ilmiy yangilik: orqa uretra klapani turli darajadagi og‘irlikka ega bo‘lgan bolalarda buyrak faoliyati holati, qovuq-siydik nayi refluksining ifodalanish darajasi va bemor yoshiga asoslanib, siydikni chiqarish usulini tanlashda differensial yondashuv ishlab chiqildi va ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bu taklif “Orqa uretra klapani bo‘lgan bolalarda siydikni chiqarish usulini tanlashda differensial yondashuv xususiyatlari” mavzusidagi uslubiy tavsiyalarda bayon etilgan ma’lumotlar asosida ishlab chiqildi va ToshPTI Ilmiy kengashining 2024 yil 3

iyuldagi 03/297-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Taklif amaliyotga joriy etildi: Surxondaryo viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 2024 yil 24 oktyabrdagi 228-t-sonli buyrug'i va Qashqadaryo viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 2024 yil 20 noyabrdagi 11-t-sonli buyrug'i asosida (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengash xulosasiga asosan). *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:* UOKning og'ir shakllari bo'lgan bolalarda qayta jarrohlik aralashuvlari va asoratlar soni kamaydi, tirik qolish darajasi oshdi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:* Qayta operatsiyalar va uzoq muddatli davolash xarajatlarining tejalishi har bir bemor uchun o'rtacha 1 100 000 so'mni tashkil etdi. *Xulosa:* UOK og'irlik darajasi, buyrak funksiyasi va refluks mavjudligiga asoslangan holda siydikni chiqarish usulini tanlash bo'yicha differensial algoritmi amaliyotga joriy etish jarrohlik natijalarini yaxshilaydi va qayta jarrohlik ehtiyojini kamaytiradi.

Uchinchi ilmiy yangilik: UOKning og'ir shakllarini davolashda jarrohlik amaliyotini kengaytirish va siydik pufagini doimiy drenaj qilishni ta'minlash maqsadida Double J stentni o'rnatishning modifikatsiya qilingan usuli taklif etildi va amaliyotga joriy etildi (№ IAP 7813, 2024). Bu usul kam shikastlovchi va samarali drenaj imkonini beradi. Ushbu xulosalar "Orqa uretra klapani bo'lgan bolalarda siydikni chiqarish usulini tanlashda differensial yondashuv xususiyatlari" mavzusidagi uslubiy tavsiyalarga kiritilgan bo'lib, 2024 yil 3 iyulda ToshPTI Ilmiy kengashi qarori (№03/297) bilan tasdiqlangan. Taklif amaliyotga joriy etilgan: Surxondaryo viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 2024 yil 24 oktyabrdagi 228-t-sonli buyrug'i va Qashqadaryo viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 2024 yil 20 noyabrdagi 11-t-sonli buyrug'i asosida. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengash xulosasiga asosan). *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:* Klapanni darhol ablyatsiya qilish mumkin bo'lmagan holatlarda siydik chiqarish yo'llarini adekvat drenaj qilish imkoniyatini yaratib, SBKning avj olishi xavfini kamaytirishga imkon berdi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:* Gospitalizatsiya muddati va asoratlar sonining kamayishi natijasida har bir bemor uchun o'rtacha 1 300 000

so‘m miqdorida iqtisodiy foyda ta‘minlandi. *Xulosa:* Siydik pufagini stentlashning takomillashtirilgan usulini qo‘llash UOKning og‘ir shakllari bo‘lgan yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda siydikni vaqtincha chiqarishda samarali va kam shikastlovchi usulni ta‘minladi hamda davolashning xavfsizligi va natijadorligini oshirdi.

To‘rtinchi ilmiy yangilik: UOK bo‘yicha jarrohlik davolashning yaqin va uzoq muddatli natijalari baholandi. Ushbu tahlil doirasida buyrak va siydik pufagining morfo-funksional holatidagi o‘zgarishlar dinamikasi ultratovushli dopplerografiya, miksion sistouretroografiya va radioizotopli ssintigrafiya yordamida o‘rganildi. Bu esa surunkali buyrak kasalligining avj olish xavfi va urodinamik buzilishlar xavf omillarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu takliflar “Bolalarda orqa uretra klapaniga zamonaviy tashxis va davolash usullarini qo‘llash” mavzusidagi uslubiy tavsiyalarga kiritilgan bo‘lib, ToshPTI Ilmiy kengashining 2024 yil 3 iyuldagi 03/298-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Taklif amaliyotga joriy etildi: Surxondaryo viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 2024 yil 24 oktyabrdagi 228-t-sonli buyrug‘i va Qashqadaryo viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 2024 yil 20 noyabrdagi 11-t-sonli buyrug‘i asosida (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengash xulosasiga asosan). *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:* Jarrohlik davolash samaradorligini baholash aniqligi oshdi, SBK rivojlanishiga olib keladigan xavf omillari o‘z vaqtida aniqlanmoqda. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:* Nefrologik asoratlar sonining kamayishi reabilitatsiya va gospitalizatsiya xarajatlarini har bir bemor uchun o‘rtacha 1 500 000 so‘mgacha qisqartirishga imkon berdi. *Xulosa:* Ishlab chiqilgan dinamik kuzatuv protokoli operatsiyadan so‘ng buyrak va siydik pufagi funksiyasini obyektiv nazorat qilish imkonini beradi, bu esa prognozni yaxshilaydi va terapevtik choralarni o‘z vaqtida to‘g‘rilashga sharoit yaratadi.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etildi.

Tadqiqot natijalarining nashr etilishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 6 tasi ilmiy maqola bo‘lib, ulardan 5 tasi

respublika miqyosida, 1 tasi esa O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan xorijiy ilmiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

I BOB.

BOLALARDA URETRA ORQA KLAPANI DIAGNOSTIKASI VA DAVOLANISHINING ZAMONAVIY JIHLATLARI

1.1. Uretra orqa klapanini antenatal diagnostika qilish

Uretra orqa klapanlari (UOK) pediatriyada siydik pufagining chiqish yo'llarida to'siq (obstruksiya) yuzaga kelishining eng keng tarqalgan sababi hisoblanadi va yangi tug'ilgan chaqaloqlarda hayot uchun xavfli tug'ma patologiyalardan biri deb hisoblanadi. Bu holat bolalik va o'smirlik davrida 32% bemorlarda buyraklarning surunkali kasalligiga olib keladi [3, 45-b].

Hozirgi kunda UOK bilan kasallanish 1:7000–8000 tirik tug'ilish holatlariga to'g'ri keladi. Faqat o'g'il bolalarda uchraydi va siydik yo'lining turlicha darajadagi obstruksiyasi bilan kechadi. UOK hanzugacha Yang tasnifi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi: I-tip (eng ko'p tarqalgani), II-tip (obstruktiv emas) va III-tip [4, 32-b].

Ushbu tug'ma nuqson organogenezning muhim bosqichida yuzaga kelib, buyrak va siydik pufagi faoliyatiga chuqur va umrboqiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Homiladagi og'ir infrazetikal obstruksiya (IVO) oligogidramnion yoki angidramnionga olib kelib, o'pka gipoplaziyasi va Potter sindromiga sabab bo'lishi mumkin. IVO ning yuzaga kelish vaqti hamda darajasiga qarab UOK oqibatlarini turlicha kechadi: chaqaloqlik davrida o'lim bilan yakunlanishidan tortib, bolalikda pastki siydik yo'llari simptomlari bilan namoyon bo'ladigan yengilroq shakllarigacha. Ammo kechroq namoyon bo'lish holatlari noto'g'ri tashxis qo'yilishi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Prenatal diagnostika, yangi tug'ilganlarga ko'rsatiladigan respirator yordamning yaxshilanishi va siydik pufagi faoliyatidagi funksional o'zgarishlarning yaxshiroq tushunilishi o'lim holatlarini 50 foizdan 5 foizgacha kamayishiga olib keldi [6, 19-b].

Endoskopik klapan ablatsiyasi siydik yo'llaridagi anatomik buzilishlarni bartaraf etishda samarali hisoblanadi, biroq pastki siydik yo'llarini ish faoliyatini buzulishi va yuqori siydik yo'llarini ish faoliyatini buzulishida yuzaga kelgan oqibatlar yillar davomida saqlanib qolishi va bolalik hamda o'smirlik davrida yanada

og'irlashishi mumkin. Shu sababli, neonatolog, bolalar urologi va nefrologni o'z ichiga olgan multidisiplinar yondashuv, shuningdek, neonatal davrdan o'smirlik davrigacha bo'lgan davrda sinchkov nefro-urologik kuzatuv barcha bemorlar uchun standart muolaja bo'lishi kerak.

Hozirda UOK holatlarining 46,9 foizi rejalashtirilgan prenatal ultratovush tekshiruvi (UTT) vaqtida aniqlanadi. Agar UOKga homiladorlikning 24-haftasigacha shubha bildirilsa, bu perinatal o'lim va buyrak kasalliklari xavfining ortishi bilan bog'liq bo'ladi [6, 19-b].

UTT orqali UOK mavjudligini ko'rsatuvchi asosiy belgilar ikki tomonlama ureterogidronefroz, qovuq devori qalinlashganligi (3 mm dan ortiq) kengaygan siydik pufagi va kengaygan uretra orqa klapani (kalit teshigi belgisi) hisoblanadi. Bundan tashqari, oligogidramnion yoki agidramnion ham kuzatilishi mumkin. Homila buyraklari siydik ishlab derivatsiyasini homiladorlikning 10-haftasidan boshlaydi; ikkinchi trimestrda siydik amniotik suyuqlikning asosiy manbaiga aylanadi. Homiladagi IVO va buyrak funksiyasi buzilishi tufayli diurez kamayganda amniotik suyuqlik hajmi kamayadi, bu esa oligogidramnionga olib keladi. Demak, amniotik suyuqlik hajmi postnatal buyrak funksiyasi uchun ehtimoliy prognoz ko'rsatkichi bo'lishi mumkin [29, 55-82-b].

Amniotik suyuqlik hajmi odatda amniotik suyuqlik indeksi (ASI) orqali baholanadi. ASI 5- va 95- percentillar oralig'ida bo'lsa, normal deb hisoblanadi. Ayrim mualliflar pastki siydik yo'llarining obstruksiyasiga (PSYO) shubha bo'lganda ASI 5–25 percentillar orasida bo'lsa ehtiyotkorlik bilan yondashishni tavsiya qiladi, chunki bu holat tug'ruqdan keyingi buyrak yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [54, 419-423-b; 106, 1290–1299-b].

Biroq bu har doim ham shunday emas. ASI ning normal bo'lishi har doim ham buyrak funksiyasi ham normal bo'lishini anglatmaydi. UTT orqali aniqlanishi mumkin bo'lgan qo'shimcha belgilar orasida buyrak atrofidagi urinoma, siydik atsciti, siydik pufagi divertikuli yoki buyraklarda giperechogenlik (buyrak displaziyasi belgisi) mavjud bo'lishi mumkin. UTT nazorati ostida vezikotsentez

orqali olingan namunalar asosida homila siydigi tarkibi baholanishi buyrak funksiyasi holatini qo'shimcha baholash mezonini bo'lishi mumkin [135, 15-b].

Afsuski, homila siydigi biomarkerlari bo'yicha olingan ma'lumotlar ziddiyatli bo'lib, ular orqali buyrak yetishmovchiligi xavfini ishonchli bashorat qilishning imkoni yo'q.

Prenatal UTT keng qo'llanilgani sababli UOK holatlarining 46–53 foizi antenatal tarzda aniqlanishi mumkin [129, 1405–1409-b].

Erkak jinsidagi homilada ikki tomonlama megoureter, megatsist va uretra orqa klapanining kengayishi (kalit teshigi belgisi) bilan birga oligogidramnion mavjudligi prenatal UTT orqali UOK mavjudligidan darak beradi, ammo bu belgilar faqat UOK uchun xos emas.

Ma'lumotlarga ko'ra, UOK ni prenatal UTT orqali aniqlash sezgirlik 94% bo'lsa-da, uning o'ziga xosligi atigi 43% ni tashkil etadi. Past o'ziga xoslik prenatal UTTning UOK ni homiladagi pastki siydik yo'llarining boshqa obstruktiv sabablari (masalan, siydik yo'li atreziyasi yoki "olxo'ri qorin" sindromi) dan farqlay olmasligiga bog'liqdir [54, 419-423-b].

Onaning semizligi, homilaning noqulay joylashuvi va suyuqlik yetishmovchiligi prenatal UTT orqali homila siydik yo'llari anomaliyalarini aniqlash imkoniyatlarini yanada cheklaydi [105, 1496-1506-b].

Prenatal UTT dan farqli o'laroq, homila organizmining magnit-rezonans tomografiyasi (MRT) ancha yuqori darajadagi anatomik tafsilotlarni beradi hamda siydik pufagi va uretra orqa klapanining kengayishini baholash imkonini beradi. Bu baholashga amniotik suyuqlik hajmi yoki homilaning joylashuvi katta ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli, homila MRT si antenatal gidronefroznining boshqa sabablari bilan UOK ni aniqroq farqlashga imkon beradi.

Pico H. va b. (2014) homila MRT si natijalari siydik yo'llari anomaliyalarining postnatal diagnostikasi bilan 97% holatda mos kelganini, faqat ultratovush tekshiruvi (UTT) bilan esa bu ko'rsatkich 56% bo'lganini ma'lum qilgan. Tadqiqotga kiritilgan bemorlarning 15% ida perinatal yordam taktikasi o'zgartirilgan [119, 573-578-b].

Faure A. va b. (2017) diffuzion-og'irlashtirilgan homila MRTsi (DVMRT)da buyrak parenximasining odatdagidan yuqoriroq ko'rinuvchi diffuziya koeffitsienti (DK) postnatal salbiy oqibatlar bilan bog'liq bo'lganini aniqlagan. Prenatal UOK tashxisi qo'yilgan 11 homilani o'rganishda ikki holat oligogidramnion, buyrak giperyointensivligi va DK darajasining keskin oshganligi bilan tugatildi. DK darajasi yuqori bo'lgan ($1,8-2,3 \text{ mm}^2/\text{sek}$, normal oraliq $1,2-1,8 \text{ mm}^2/\text{sek}$) to'rt nafar tirik tug'ilgan homilaning barchasida tug'ilish vaqtida og'ir o'pka gipoplaziyasi, nafas olish yetishmovchiligi bo'lgan, va keyinchalik buyrak yetishmovchiligi rivojlangan [73, 666-672-b].

Ular DK buyrak parenximasi prenatal davrdagi aralashuvlar haqida qaror qabul qilishda va ota-onalarni xabardor qilishda foydali bo'lishi mumkin degan xulosaga kelganlar [73, 666-672-b].

Prenatal UTT singari, homila MRTsi ham cheklovlardan xoli emas. Ayrim markazlar homila MRTsini homiladorlikning 28–32 haftaligida o'tkazishni tavsiya qiladi, bu davrda tasvir sifatini oshirish mumkin. Biroq, bu vaqtga kelib buyrak to'qimalarining qaytarilmas shikastlanishi allaqachon yuz bergan bo'lishi mumkin, bu esa prenatal aralashuv foydasini kamaytiradi.

Ba'zi homila MRTsi protokollari homila harakatini cheklash va tasvir sifatini yaxshilash maqsadida onani sedatsiya qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, homila MRTsi hali keng tarqalmagan va natijalarni izohlash maxsus bilim va malakani talab qiladi.

Saralangan bemorlarga va ota-onalar bilan sinchkov maslahatlashuvdan so'ng prenatal muolajalar taklif etilishi mumkin. Eng ko'p qo'llaniladigan usul bu pufak-amniotik shunt qo'yish bo'lib, bu usul siydik tizimini dekompressiyalash orqali buyrak shikastlanishini kamaytirishga qaratilgan.

Pufak-amniotik shuntlashdan katta umidlar bo'lganiga qaramay, randomizatsiyalangan xalqaro ko'p markazli tadqiqot (PSYO tadqiqoti) bu muolajaning buyrak funksiyasi uchun uzoq muddatli foydasi borligini isbotlovchi aniq natijalarni bermagan. Bundan tashqari, muolaja davomida asoratlarning chastotasi 21–59% ni tashkil qilgan.

So‘nggi yillarda homilada ichki ablyatsiyani sistoskopiya orqali va homilani ochiq jarrohlik orqali vezikostomiya qilish kabi ikki yangi prenatal muolaja taklif etilgan. Ammo bu ikkala usul ham onaning va homilaning yuqori darajadagi kasallanishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

UOKga prenatal shubha asosida postnatal davolanish uchun to‘g‘ri erta multidisiplinar yondashuvni rejalashtirish mumkin.

Homila siydigi proteomikasi postnatal buyrak funksiyasini bashorat qilishda qo‘llanilgan va bu usul erta postnatal terminal buyrak yetishmovchiligi (TBY)ning boshqa prognozlovchi usullaridan ustun bo‘lgan: sezuvchanlik 88%, o‘ziga xoslik 95%.

Homila siydigi metabolomikasini proteomika bilan birlashtirish metabolomika aniqligini ancha oshirgan, ammo proteomika aniqligiga ta’sir qilmagan [59, 1-9-b]. Shunga qaramay, bu istiqbolli usullar keng tarqalmagan va muntazam qo‘llanilmaydi.

Homila siydigi yoki qonini olish bilan bog‘liq invazivlik va asoratlardan qochish maqsadida ayrim radiologik xususiyatlar (tashxis qo‘yilgan paytdagi gestatsion yosh, amniotik suyuqlik hajmi, megatsistis, gidronefroz darajasi va buyrak kortikal moddasining tashqi ko‘rinishi) postnatal buyrak funksiyasini bashorat qilishda qo‘llanilgan.

Morris RK va b. (2009) tadqiqotlariga ko‘ra, buyrak korteksining ultratovushdagi ko‘rinishi (giperechogen yoki kistoz) postnatal yomon buyrak funksiyasining eng aniq UTT prediktori deb topilgan (sezuvchanlik 57%, o‘ziga xoslik 84%) [106, 1290-1299-b].

Yuqorida aytilganidek, Faure A. va b. (2017) oshqalar homila buyrak parenximasining ADC ko‘rsatkichi homila MRTsida postnatal buyrak funksiyasini bashorat qilishda foydali bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaganlar [73, 666-672-b].

1.2. Bolalarda uretra orqa klapanini erta davolash

Yomon moslashuvchan va gipereaktiv siydik pufagiga ega bo‘lgan bemorlarda antixolinergik dori vositalarining muvaffaqiyatli qo‘llanilishi shifokorlarni xuddi

shunday urokinamik buzilishlarga ega bo'lgan UOK li bemorlarda ham bu dorilarni qo'llashni o'ylashga undagan.

Bugungi kunga kelib, oksibutinin bolalarda qo'llash uchun tasdiqlangan yagona antixolinergik dori bo'lib, UOK li bolalarda kuniga 2 yoki 3 mahal 0,1–0,2 mg/kg dozada buyuriladi [60, 1516-1520-b].

Kattaroq yoshdagi bolalarga kuniga 5 mg gacha yuqori dozalarda buyurilgan [42, 826-831-b].

Casey JT. va boshq. (2012) UOK li bolalarda oksibutinin qo'llanilishi siydik pufagi tiklanishini tezlashtirishi va doimiy siydik pufagi disfunktsiyasi (DSP) rivojlanish xavfini kamaytirishi mumkin degan faraz asosida sinovdan o'tkazilgan [60, 1516-1520-b].

Ushbu tadqiqotda oksibutinin bilan davolash uchun asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar bo'lgan: siydik derivatsiyasi paytida yuqori bosim (> 60 sm H₂O), kichik siydik pufagi sig'imi (belgilangan yosh uchun kutilgan sig'imning $<70\%$).

Boshqa tadqiqotchilar antixolinergik preparatlarni siydik pufagi chiqish yo'llarida obstruksiya kuzatilmagan, biroq siydik pufagining past ish faoliyati, moslashuvchanlik buzilishi yoki detruzorning gipereaktivligi (GD) aniqlangan bemorlarda kechroq yoshda qo'llashgan.

Alsaywid BS va boshq. (2021) va UOKni bo'lgan 30 nafar boladan 16 nafarida simptomatik yaxshilanishni, shuningdek, siydik pufagi sistometrik sig'imining oshishi va bosimining kamayishini kuzatgan. Bu bemorlar imipramin bilan davolangan bo'lib, u antixolinergik xususiyatga ega bo'lgan antidepressant hisoblanadi [46, 30-35-b].

Casey va boshq. (2012) UOK li bolalarda oksibutinin bilan davolash siydik pufagi remodellashtirilishiga yordam berishi va doimiy pufak disfunktsiyasi (DP) xavfini kamaytirishi mumkinligini taxmin qilishgan. UOK tashxisi qo'yilgan, yuqori siydik derivatsiyasi bosimi va/yoki kichik siydik pufagi sig'imiga ega bo'lgan 18 nafar chaqaloqda oksibutinin bilan o'rtacha 2,2 yil davom etgan davolanish kam moslashuvchanlikka ega bo'lgan bemorlarning barchasida muolajaga javobni

yaxshilagan. Kichik siydik pufak sig'imiga ega bo'lgan bemorlar sig'imning o'rtacha 47,7% dan 216% gacha o'sishini ko'rsatganlar [60, 1516-1520-b].

Abdelhalim va hammualliflar (2019) olib borgan randomizatsiyalangan nazoratli tadqiqotda oksibutinin olgan bemorlarning 61,9% buyrak segmentlarida gidronefroz yaxshilangan, bu ko'rsatkich faqat nazorat ostida bo'lgan guruhda 34,8%ni tashkil etgan. Shuningdek, qovuq-siydik nayi refluyksi (QSNR) oksibutinin guruhi bemorlarining 62,5% ida bartaraf etilgan, bu esa nazorat guruhida 25% bo'lgan. Biroq, gidronefroz va QSNR yo'qolishi buyrak funksiyasi, siydik yo'llari infeksiyasi (IMP) qaytalanish chastotasi yoki hojatga o'rgatish natijalarida muhim farq keltirib chiqarmagan. Mualliflar, endoskopik klapan ablatsiyasidan keyin gidronefroz saqlanib qolgan chaqaloq va yosh bolalarda antixolinergik davolash ko'rib chiqilishi mumkinligini taklif qilganlar [42, 826-831-b].

Ota-onalar va vasiylar antixolinergik vositalar bilan davolash doza bog'liq, biroq ko'tariladigan nojo'ya ta'sirlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida xabardor bo'lishlari lozim. Bular orasida og'iz qurishi, yuz qizarishi va qabziyat kiradi. Ayrim tadqiqotlarda antixolinergik vositalar qabul qilgan kattalarda xotira va kognitiv funksiyalarga salbiy ta'sirlar qayd etilgan bo'lsa-da, bolalar uchun bunday ta'sirlar bo'yicha hech qanday dalil mavjud emas [58, 1712-1735-b].

β 2 agonistlari, masalan, **mirabegron**, kattalarda gipereaktiv siydik pufagi va GD ni davolashda muvaffaqiyatli qo'llaniladi va ular antixolinergik dorilarga qaraganda kamroq nojo'ya ta'sirlar keltirib chiqaradi. Ma'lumki, hozirgacha β 2-agonistlar UOK ga ikkilamchi DSPni davolashda baholangan emas. Ularning samaradorligi tasdiqlansa, β 2-agonistlar antixolinergik terapiya cheklovlarini bartaraf etishi mumkin.

Ba'zi tadqiqotchilar antixolinergik terapiyani dori bilan bog'liq **miogen yetishmovchilik** bilan bog'laydi, boshqalar esa bu holat davolanmagan bolalik davridagi DSP natijasi deb hisoblashadi. Ayrim tadqiqotlarda miogen yetishmovchilik faqat antixolinergik dori olgan bemorlarda aniqlangan. Shu sababli, bu holat antixolinergik terapiya oqibati deb taxmin qilinadi.

Masalan, Misery va boshqalar 5,9% bemorlarda miogen yetishmovchilikni aniqlashgan. Bu bemorlarning barchasida dastlab gipokompliant siydik pufagi bo'lgan va ular antixolinergik dori olgan. Miogen yetishmovchilik faqat davo boshlanganidan so'ng rivojlangan va davo to'xtatilgach bartaraf etilgan.

Boshqa tadqiqotchilar esa davolanmagan siydik pufagi disfunktsiyasi siydik pufagi dekompensatsiyasiga, natijada miogen yetishmovchilikka olib kelishini ta'kidlashgan.

Chen HS va boshq. (2022) chaqaloqlik davrida UOK bo'yicha davolangan 18 nafar o'smir va pubertat yoshidagi o'g'il bolalarning 10 nafarida (55,5%) miogen yetishmovchilik aniqlashgan. Bu bemorlarning hech biri antixolinergik terapiya olmagan. Tadqiqot mualliflari siydik pufagi bo'yin qismida ikkilamchi obstruksiya miogen yetishmovchilikka olib kelganini taxmin qilishgan, chunki ushbu bemorlarning 5 nafarida α -blokatorlar bilan yoki pufak bo'yni kesmasi (RShMP) orqali davolashdan so'ng urodinamik ko'rsatkichlar yaxshilangan [62, 505-511-b].

Siydik pufagi sezuvchanligining kamayishi, poliuriya va to'liq bo'shamaslik UOK li bemorlarda DSP ni yanada kuchaytiradi. Kunduzi siydik derivatsiyasining qat'iy rejimi, ikki martalik siyish, antixolinergik dori qabul qilish va vaqt-vaqti bilan kateterizatsiya ayrim hollarda yuqori siydik yo'llarining kengayishini yaxshilashda samarasiz bo'lishi mumkin.

Past moslashuvchan siydik pufagiga ega bemorlarda siydik pufagini tun bo'yi drenaj qilish SYI, yuqori siydik yo'llari kengayishi va postobstruktiv diurez xavfini kamaytiradi. Bu usul siydik ushlab turishni yaxshilashi va buyrak yetishmovchiligining kuchayishini sekinlashtirishi mumkin.

Tungi drenaj siydik pufagidagi bosimni kamaytirish, pufakka dam berish, natijada urodinamik ko'rsatkichlar va yuqori siydik yo'llari natijalarini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin [55, 133-137-b].

Koff va boshqalar 12 nafar "siydik pufagi klapani" sindromi mavjud o'g'il bolada kechasi doimiy kateter, kechki vaqt oralig'ida kateterizatsiya yoki ikki martalik siyish yordamida siydik pufagini bo'shatish dasturini boshlaganlaridan so'ng, gidronefroz va buyrak funksiyasi yaxshilanganini qayd etishgan. Kechasi

kateter orqali drenaj qilingan bemorlarning natijalari siydik pufagini kengaytirish jarrohligi o'tkazilgan bemorlar natijalari bilan teng bo'lgan.

Yangi tug'ilgan chaqaloqda UOK dan shubhalanilganda, birinchi navbatdagi urologik choralar siydik pufagini drenaj qilishdir. Bu odatda transuretral kateter (odatda sharsiz oziqlantirish zondi) o'rnatish orqali amalga oshiriladi. So'ngra UOK tashxisini tasdiqlash va kateterning to'g'ri joylashganligini baholash uchun miktsion sistoureterografiya (MTsUG) o'tkazilishi kerak [EAU Guidelines 2022; Deshpande AV (2018)]. Agar transuretral kateterizatsiya imkoni bo'lmasa, suprapubik kateter o'rnatilishi kerak.

1.3. Uretra orqa klapanini jarrohlik yo'li bilan davolash

1.3.1. Endoskopik ablatsiya / kesish

Bemorning umumiy holati (sistemali, nafas va buyrak nuqtayi nazaridan) barqarorlashgach, sistoskopiya orqali MTsUG natijalari tasdiqlanadi va endoskopik klapan ablatsiyasi yoki rezeksiyasi bajarilishi kerak [70,3505-3507-b]. Neonatal sistoskoplarda hatto juda kichik bemorlarda ham endoskopik davolashni amalga oshirishga imkon beradi. Hayotining dastlabki oylarida klapan ablatsiyasi siydik pufagi urodinamiyasi, qovuq-siydik nayi reflyuksi (QSNR) va gidroureteronefrozing yaxshilanishi yoki yo'qolishi nuqtayi nazaridan uzoq muddatli natijalarning yaxshiroq bo'lishi bilan bog'liq [77, 638-b].

Ba'zi yangi tug'ilgan chaqaloqlar hatto neonatal davrda asboblardan ham erta ablatsiya uchun yaroqsiz bo'lishi mumkin, chunki ularning siydik yo'llari diametri juda kichik bo'ladi. Bunday hollarda, siydik yo'lini bosqichma-bosqich kengaytirish va diametri kattalashib boruvchi kateter o'rnatish usuli qo'llanilishi mumkin.

Klapanlar odatda soat 5 va 7 yo'nalishlarda, ba'zan esa 12 yo'nalishda kesiladi. Jarayon usuli vaqt o'tishi bilan o'zgaradi va jarrohning afzalligiga qarab belgilanadi: elektrokauter bilan kesish, sovuq pichoq bilan kesish yoki lazerli kesish/fulguratsiya.

Lena F va boshq. (2023) ta'kidlaganidek, Golmiyom: YAG lazeri xavfsiz va samarali muqobil usul sifatida tavsiya etilgan bir qancha maqolalar mavjud. Avval golmiyom: YAG lazerdan foydalanilgan bo'lsa-da, hozirda tuliy lazeri ishlatilmoqda va bu usul 25 bemorda yaxshi natijalar bergan. Amalga oshirilgan operatsiyalardan

so'ng faqat alohida holatlarda gematuriya kuzatilgan, va erta siydik derivatsiyasi natijalari yaxshi bo'lgan. Bu usul minimal invaziv ablatsiya usuli hisoblanadi va siydik pufagi disfunktsiyasining kechki shakllariga qarshi profilaktika sifatida ham ko'riladi [117, 10-b].

Endoskopik davolashdan keyingi asoratlari 5 dan 25% gacha uchrashi mumkin va ular orasida siydikning to'qimalarga chiqishi, gematuriya va siydik yo'li strikturasi kabi og'ir holatlar bo'lishi mumkin. Hozirda striktura xavfini kamaytirish uchun ablatsiya o'rniga klapani kesish tavsiya qilinmoqda.

UOK ni davolagach, odatda doimiy kateter qoldiriladi, og'ir holatlarda esa suprapubik kateter ham o'rnatiladi. Endoskopik davolash samaradorligi buyrak funksiyasining yaxshilanishi, UTT, MTsUG va/yoki endoskopik nazorat natijalari orqali baholanadi [86, 1611-1616-b].

Ba'zi mualliflar, gidronefroz va QSNR holatlarini yaxshilash uchun, chaqaloqlarda endoskopik ablatsiyadan keyin erta (va vaqtincha) oksibutinin buyurishni tavsiya qiladilar. Ammo biz odatda yangi tug'ilgan chaqaloqlar va go'daklarga darhol oksibutinin buyurmaymiz, balki klinik ko'rsatmalar bo'lsa, uni faqat katta yoshdagi bolalar va o'smirlarga buyuramiz [89, 101-b].

1.3.2. UOK li bemorlarda siydik derivatsiyasini ta'minlash

Shuningdek, 7 nafar bolaga (33,3%) mexanik sabablarga, yosh yoki ogʻriq tufayli davriy kateterizatsiya imkoni boʻlmagan. Bunday hollarda Mickey vezikostomiya oʻrnatilgan (4.2.1.1-rasm).



4.2.1.1-rasm. Mickey vezikostomiyasini oʻtkazishga oldindan tayyorgarlik

Mickey vezikostomiyasi oʻrnatilgan paytdagi yosh 4 oydan 3 yoshgacha boʻlib, urtacha yoshi 13 oy boʻlgan. Siydik samarali ravishda drenaj qilingan, va siydik pufagining orqa devori prolapsi oldi olingan.

Vezikostomiya bajarilganidan soʻng barcha bemorlarda quyidagi ijobiy natijalar kuzatilgan:


- siydik pufagi ichki bosimining tez pasayishi;
- qoldiq siydik hajmining kamayishi;
- buyrak funksiyasining ikki hafta va undan koʻproq muddat ichida yaxshilanishi (3.2.1.1-jadval).


Megaureter va gidronefrozga ega bemorlarda operatsiyadan keyin buyrak kosacha-jom tizimi hajmining kamayishi qayd etilgan. Operatsiyadan keyingi davrda siydikning yetarlicha chiqishini nazorat qilish va infeksiya hamda stoma yopilib qolishining oldini olish maqsadida stomaga parvarish koʻrsatish amalga oshirilgan (4.2.1.2-rasm).

Mickey vezikostomiya o'tkazilishidagi natijalar

bemor	sababi	asorat	davomiyligi	natija
bemor 1	UOK. SBK. Upka gipoplasiyasi	SYI	3 oy	Vezikostomiya
bemor 2	UOK. SBK.	Oqib chiqish	1 oy	Mickey stomani uzgartirish
bemor 3	UOK. SBK.	-	12 oy	Stomani yopish
bemor 4	UOK. SBK.	-	14 oy	Stomani yopish
bemor 5	UOK. SBK.	Qurilma nosozligi	1 oy	Mickey stomani uzgartirish
bemor 6	UOK. SBK.	-	12 oy	Stomani yopish
bemor 7	UOK. SBK.	-	12 oy	Stomani yopish

Stoma sohasi infeksiyalari 2 nafar bemorda (13%) qayd etilgan bo'lib, bu holatlarda qo'shimcha antibakterial davolash talab etilgan. Stoma parvarishi va kateter qo'llanishi tufayli bemorlarning aksariyatida harakatlanish cheklovlari mavjud bo'lgan. Stomaning yopilib qolish xavfi kamdan-kam holatlarda kuzatilgan va takroriy jarrohlik aralashuvini talab etgan.





D.



C.

4.2.1.2-rasm. Olingan natijalar. A. Sistogrammalar: Mickey vezikostomiya o'rnatilishidan oldin va B. o'rnatilgandan keyin. D., C. Mickey vezikostomiyaning tashqi ko'rinishi

Vezikostomiya siydik yo'llarining og'ir obstruksiyasi bo'lgan bolalarda holatni barqarorlashtirishda yuqori samaradorlik ko'rsatgan. Ushbu usul siydik pufagi bosimini pasaytirishga, urodinamika holatini yaxshilashga va buyraklarga qo'shimcha zarar yetishini oldini olishga imkon bergan. Stoma sohasi infeksiyalari kabi ba'zi asoratlar mavjud bo'lishiga qaramay, bu usul UOK ning og'ir shakllarini davolashda asosiy bosqich bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Mickey vezikostomiya uretra orqali davriy kateterizatsiyani bajara olmaydigan (og'riq, yosh va boshqalar sababli) ayrim bemorlar uchun foydali hisoblanadi. Ushbu usul kosmetik jihatdan qulay va texnik jihatdan sodda bo'lgani bois, bemorlar va ularning oilalari tomonidan yaxshi qabul qilingan.


Kelgusida uzoq muddatli natijalarni baholash, hayot sifatini o'rganish va siydik pufagini davriy drenaj qilishning boshqa an'anaviy usullari bilan taqqoslash Mickey vezikostomiyasining UOK bo'lgan bolalardagi o'rnini to'liq aniqlash uchun zarurdir.

4.2.2. UOK bo'lgan bolalarda ureterostomiya yo'li bilan siydik derivatsiyasi natijalari

Ureterostomiya 14 nafar (11,7%) og'ir shakldagi UOK bilan og'riqan bemorlarda bajarilgan. Bu usul siydikning kuchli turg'unligi, katta miqdorda qoldiq siydik hajmi mavjudligi va kateterizatsiya qilishning imkonsizligi kuzatilgan hollarda qo'llanilgan. Bu jarrohlik amaliyoti davomida obstruksiya joyidan pastroq uretra devorida sun'iy teshik ochilib, siydik chiqarilishi ta'minlangan.

Ureterostomiya UOK ning og‘ir shakllari bilan og‘rigan bolalarda urodinamikani barqarorlashtirish uchun vaqtinchalik choratadbir sifatida ishlatilgan, ayniqsa boshqa drenaj usullarini qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlarda.

Ureterostomiya bajarish uchun ko‘rsatmalar quyidagilar bo‘lgan: uretraning to‘liq obstruktsiyasi – ya’ni kateter o‘tkazish yoki klapan ablatsiyasini bajarishning imkonsizligi 8,0% bolalarda qayd etilgan; orqa uretraning ayniqsa proksimal qismida kengayishi, bu holatlarda siydik pufagini bo‘shatish zarurati bo‘lgan; 55,8% bemorda aniqlangan jiddiy qovuq-siydik nayi reflyuksi kabi asoratlari va buyrak zararlanishi xavfi, shuningdek, siydik pufagiga anatomik yoki texnik cheklovlar tufayli vezikostomiya bajarishning imkoni bo‘lmagan holatlar – 32% (4.2.2.1-rasm).



4.2.2.1-rasm. Ureterastomiya o‘tkazish uchun ko‘rsatmalar

Jarrohlik aralashuvi vaqtida bemorga premedikatsiya va operatsion maydonning antiseptik ishlovi o‘tkazilgan. Ureterastomiya joyi obstruktsiya darajasiga qarab tanlangan.

Kindikdan pastda kesma bajarilib, sun‘iy teshik hosil qilingan va siydik tashqariga chiqarilgan, bu teshik yopilib qolmasligi uchun mustahkamlangan.

Operatsiyadan keyingi nazorat siydikning stoma orqali chiqishini monitoring qilish va infeksiyalarni oldini olish uchun uretrastomiya sohasiga parvarish ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan.

Ureterastomiya o‘tkazilgach, barcha bemorlarda quyidagi natijalar kuzatilgan: qoldiq siydik hajmining sezilarli darajada kamayishi, buyrak funksiyasining

barqarorlashuvi va gidronefrozning kamayishi. Qoldiq siydikning o'rtacha hajmi $50,2 \pm 10,3$ ml dan $12,4 \pm 3,8$ ml gacha kamaygan ($p < 0,05$). Gidronefrozning II–III darajasi bo'lgan bemorlarda kosacha-jom tizimi diametri $16,8 \pm 3,5$ mm dan $10,2 \pm 2,1$ mm gacha kamaygan ($p < 0,05$). Dastlabki kreatinin darajasi 100 mkmol/l dan yuqori bo'lgan bemorlarda u $89,6 \pm 14,3$ mkmol/l gacha tushgan ($p < 0,05$), bu buyrak funksiyasining barqarorlashuvini ko'rsatadi.

Klinik misol: M. ismli bemor, 8 oylik, uretraning to'liq obstruksiyasi, orqa uretraning sezilarli kengayishi va III darajali gidronefroz bilan shifoxonaga yotqizilgan. Ureterastomiya o'tkazilgach, siydik chiqishi tiklangan, buyrak kosacha-jom tizimi o'lchami kamaygan va kreatinin darajasi 120 mkmol/l dan 75 mkmol/l gacha tushgan (10 kun ichida).

Ureterastomiya o'tkazilganidan so'ng quyidagi asoratlar kuzatilgan: 4 nafar bemorda (28,6%) siydik yo'llari infeksiyasi (IMI) rivojlangan, bu antibakterial davolash kursini talab qilgan; 2 nafar bemorda (14,3%) stoma sohasida uretra strikturalari paydo bo'lgan, bu esa qo'shimcha jarrohlik aralashuvini talab qilgan; barcha bemorlarda vaqtincha diskomfort va faollikning kamayishi kuzatilgan, bu stoma borligi bilan bog'liq bo'lgan.



4.2.2.2-rasm. Ureterastomiya o'tkazilgan bemorning tashqi ko'rinishi

Shunday qilib, ureterastomiya uretraning to'liq obstruksiyasi va UOK bo'lgan bemorlar holatini barqarorlashtirishda muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan. Bu usul siydik pufagidagi bosimni kamaytirish, urodinamikani tiklash va buyraklarga zarar

yetishini oldini olish imkonini bergan. Infeksiyalar va chandiq to'qimalarning shakllanish xavfi yuqoriligiga qaramay, bu usul boshqa siydik derivatsiyasi yo'llari drenaj usullarini qo'llash imkonsiz bo'lgan hollarda samarali bo'lib qolmoqda. Erta tashxis va davolash usulini individual tanlash asoratlarni minimallashtirish va uzoq muddatli natijalarni yaxshilashga imkon beradi.

4.2.3. UOK bo'lgan bolalarda Double J stent o'rnatish orqali siydik derivatsiyasi natijalari

Siydik yo'llarining keyingi zararlanishini oldini olish va siydik pufagini uzoq muddatli va xavfsiz drenaj qilish muammosini hal qilish maqsadida UOK tashxisi qo'yilgan bolalarda Double J stentdan foydalanilgan. Bu usul 18 nafar (15%) bemorga qo'llanilgan.

Double J stent o'rnatish uchun asosiy ko'rsatmalar quyidagilar bo'lgan: orqa uretraning to'liq yoki qisman obstruksiyasi, bu ultratovush tekshiruvi, sistografiya yoki sistoskopiya orqali aniqlangan; siydik oqimini odatiy usullar bilan (kateterizatsiya, klapan ablatsiyasi) tiklab bo'lmazligi; 30 ml dan ortiq qoldiq siydik hajmi bo'lgan bemorlar (66,7% hollarda qayd etilgan), bu holat surunkali yuqori siydik pufagi bosimi bilan kechgan; yuqori darajadagi qovuq-siydik nayi refluyksi (QSNR), 55,8% bemorda qayd etilgan, bu bosimni pasaytirishni talab qilgan; buyrak kosacha-jom tizimi (35%) va ureterlarning kengayishi (41,7%), bu og'ir urokinamik buzilishlardan dalolat bergan.

Shuningdek, surunkali SYI bilan og'rigan bemorlar (69,2%) yoki yuqori infeksiya xavfi bo'lganlar; 3 holatda bu usul siydik pufagini vaqtincha drenaj qilish, urokinamikani barqarorlashtirish va klapan ablatsiyasiga tayyorgarlik ko'rish uchun qo'llanilgan; vezikostomiyani o'tkazish imkoni bo'lmaganda (anatomya yoki asoratlar xavfi sababli), kateterizatsiya o'rniga infeksiya xavfi yuqoriligi yoki diskomfort sababli ushbu usul tanlangan.

Ushbu amaliyot narkoza qilinmasdan bajarilgan, chunki bu usul bolalar va ularning ota-onalari uchun sezilarli noqulaylik tug'dirmagan. Bola yoshiga qarab mos o'lchamdagi Double J stent (4 yoki 5 Ch) tanlangan. Steril sharoitda, meatus orqali gid stent o'tkazilgan va bir uchi siydik pufagiga, ikkinchi uchi tashqariga

joylashtirilgan. Bu siydik pufagidan siydikning uzluksiz chiqishini ta'minlagan. Stent joylashtirilgach, uning to'g'ri holatini tasdiqlash uchun nazorat vizualizatsiya o'tkazilgan.

Siydik pufagini drenaj qilishdan so'ng, bemor holati monitoring qilingan: buyrak ajratish funksiyasi va stentda obstruksiya yo'qligi kuzatilgan. Barcha 18 bemorga infeksiyani oldini olish uchun antibiotic profaktikasi va siydik pufagi funksiyasini barqarorlashtirish uchun M-xolinolitiklar buyurilgan.

Rejalashtirilgan ko'rik stent o'rnatilganidan 4–6 hafta o'tgach, uning holati va o'tkazuvchanligi ultratovush tekshiruvi (UTT), ekskretor urografiya va laborator tahlillar yordamida baholangan.

Monitoring natijalari 4.2.3.1-jadvalda keltirilgan.

4.2.3.1-jadval

**Double J stent o'rnatilgandan so'ng klinik va laborator ko'rsatkichlar
dinamikasi (n=18)**

kursatkich	N	Urnatishdan oldin (M±SD)	4–6 haftadan so'ng (M±SD)
Qoldoq siydik miqdori (ml)	18	50,2 ± 10,3	15,4 ± 4,8
Gidronefros (KJT ulchami)	18	17,2 ± 3,5	10,1 ± 2,3*
Kreatinin (mkmol/l)	18	130 ± 30	95 ± 20

Izoh: Hidronefroz darajasida Mann–Whitney U-testi asosida statistik ahamiyatli farq aniqlangan ($p < 0,05$).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Double J stent o'rnatilganidan so'ng bemorlarning 83 foizida gidronefrozning sezilarli darajada kamaygani ($p < 0,05$) va 94 foizida ekskretor urografiya ma'lumotlariga ko'ra normal urodinamikaning tiklangani qayd etilgan. 11 foiz holatda stentning dastlabki obstruksiya belgilariga ko'ra muddatidan oldin almashtirilishi zarur bo'lgan.

Double J stent har 1–2 oyda muntazam ravishda almashtirilishi kerak bo'lgan, bu esa uning inkrustatsiyasi, siljishi va obstruksiyasining oldini olish, shuningdek siydik derivatsiyasi yo'llarining normal faoliyatini saqlash uchun muhim edi. Ushbu ma'lumotlar UOK bo'lgan bemorlarda urodinamikani tiklash va buyrak

yetishmovchiligi rivojlanishi xavfini kamaytirishdagi usulning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Klinik misol. X.M. ismli bemor. Tugʻilgan sana: 31.12.2023 (yosh – 1 yil).

Kasallik tarixi №1089/456

Yotqizilgan sana: 03.05.2024

Chiqish sanasi: 21.05.2024

DIAGNOZ: IVO. Orqa uretra klapani I turi. Ikkala tomonda ikkilamchi qovuq-siydik nayi reflyuksi, V daraja. Uremiya. Urosepsis. SBK. Surunkali pielonefrit, kuchayish bosqichi. Surunkali trabekulyar sistit. Hamroh: 2-darajali anemiya.

Shikoyatlar: tana haroratining vaqti-vaqti bilan 38,5–39,0°C gacha koʻtarilishi, siydik rangining loyqalashuvi.

Anamnez: Patologiya tugʻilishdan aniqlangan. UTT orqali ikkala tomonda ureterogidronefroz aniqlangan. Keyinchalik yashash joyida ambulator va statsionar davolovchi muolajalar qabul qilgan. Tekshiruv uchun shifoxonaga yotqizilgan.

Obyektiv: Yotqizilgan vaqtda bolaning holati ogʻir. Teri qoplamlari oqarib ketgan. Nafas olish vezikulyar, oʻpkaning barcha qismlarida eshitiladi, xirillash yoʻq. Yurak urishlari ritmik. Puls qoniqarli. Qorin yumshoq, simmetrik, ogʻriqsiz, shishmagan. Siydik loyqa.

Yotqizilish vaqtidagi klinik-laborator koʻrsatkichlar:

Umumiy qon tahlili, 03.05.2024: Gemoglobin – 68 g/l, eritrotsitlar – 2,10, leykotsitlar – 13,0, SOE – 13,6.

Biokimyo, 03.05.2024: Umumiy oqsil – 71 g/l, mochevina – 12,7 mmol/l, kreatinin – 148 mmol/l.

Umumiy siydik tahlili, 03.05.2024: Zichlik – 1010, oqsil – 0,033%, rang – loyqa, leykotsitlar – toʻliq koʻrinishda.

Nazorat umumiy siydik tahlili, 11.05.2024: Oqsil – 0,099%, pH – 5,0, leykotsitlar – koʻp miqdorda, eritrotsitlar – 30–35.


UTT, 03.05.2024: Oʻng buyrak – 60×23 mm, parenxima qalinligi – 4–5 mm, kosacha-jom tizimi kengaygan. Jom orqa-oʻng oʻlchami – 10×10 mm, kosachalar – 8 mm. Ureter yuqori 1/3 – 8 mm, pastki 1/3 – 9 mm. Chap buyrak – 51×22 mm,

parenxima – 4–5 mm, jom-muyulchak tizimi kengaygan. Jom o‘lchami – 10×7 mm. Kosachalar kengaymagan. Ureter yuqori 1/3 – 7 mm, pastki 1/3 – 9 mm.

Miksion sistoureterografiya (30.04.2024): Siydik pufagi notekis shaklda, konturlari ham notekis. Ikkala tomonda V darajali pufak-muyulchak reflyuksi aniqlangan. Miktsiya vaqtida orqa uretra proyeksiyasida suprastenotik kengayish aniqlangan.

MSKT ekskretor uroografiya (30.04.2024): Ikkala buyrak kollektorlari tizimi kontrastlanishi sustlashgan. Ikkala tomonda jom-muyulchak tizimi va ureterlarning kengayishi aniqlangan.

05.04.2024: Diagnostik uretrotsistoskopiya. Orqa uretra klapanini kesish Siydik pufagini doimiy drenaj qilish uchun Double J stent (4 Fr-16 sm) o‘rnatilgan (4.2.3.1-rasm).



4.2.3.1-rasm. Double J stentni o‘rnatish

Bo‘limda bemorga antibakterial, infuzion, simptomatik davolash va uroseptik vositalar buyurilgan.

Bola qoniqarli holatda ambulator davolanish va yashash joyida dinamik kuzatuvga chiqarilgan.

Ushbu tadqiqot doirasida uretra orqa klapani mavjud bo‘lgan bolalarda siydik pufagini doimiy drenaj qilish usuli ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Bu usul urodinamikani yaxshilash, siydik pufagi ichki bosimini kamaytirish va asoratlarning oldini olishni ta’minlaydi. Mazkur usul O‘zbekiston Respublikasi patentiga ega (№ IAP 7813, 29.08.2024 y.).

Patentlangan doimiy drenajlash usulining qo‘llanishi og‘ir darajadagi siydik derivatsiyasi yo‘llari obstruksiyasi mavjud bo‘lgan bemorlarning holatini sezilarli

darajada yaxshilash imkonini berdi. Ushbu metod oddiy bajarilishi, kam travmatiklik va asoratlarni profilaktikasidagi yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, 15 nafar bemorda (12,5%) vezikostomiya bajarilgan. Ulardan 8 nafariga standart vezikostoma, 7 nafariga (vezikostomiya holatlarining 46,7%) Mickey-vezikostoma o'rnatilgan. Mickey-vezikostoma o'rnatilgan bemorlarda parvarish qulayligi va estetik ko'rinishi sababli yuqori darajada qoniqish qayd etilgan, barcha bemorlarda 7–14 kun ichida siydik qoldig'i hajmi normal qiymatlarga tushgan. 2 nafar bemorda (13%) stomaga oid infeksiya asoratlari aniqlangan, ular antibakterial davolash bilan muvaffaqiyatli bartaraf etilgan.

14 nafar bemorda (11,7%) butunlay uretra obstruktsiyasi bilan ureterostomiya bajarilgan. 12 nafarida (85,7%) siydik chiqishi tiklangan, siydik pufagi bosimi kamaygan va buyrak faoliyati barqarorlashgan. 2 nafar bemorda (14,3%) stomaga yaqin sohada uretra strikturalari shakllangan, bu esa qo'shimcha operatsiyani talab qilgan. 4 nafar bemorda (28,6%) siydik yo'llari infeksiyasi aniqlangan, bu holat antibakterial muolajalarni talab etgan.

18 nafar bemorga (15%) Double J stent o'rnatilgan. 88,9% hollarda urodinamika to'liq tiklangan va qovuq-siydik nayi reflyuksi xavfi kamaygan. Siydik yo'li infeksiyasi holatlari kateterizatsiya qilingan bemorlarga nisbatan 69,2% dan 40% gacha pasaygan. 1 nafar bemorda (5,6%) stent qovuqdan tushib qolishi qayd etilgan, bu esa stentni qayta o'rnatishni talab qilgan.

4.3. UOK bo'lgan bolalarda jarrohlik davolash samaradorligini baholash

UOK (uretra orqa klapani) bo'lgan bolalarni jarrohlik davolash samaradorligi o'z vaqtida tashxis qo'yish, to'g'ri tanlangan operatsiya taktikasi va bemorlarni operatsiyadan keyin to'g'ri yuritishga bog'liq.

Mazkur kichik bo'limda bajarilgan operatsiyalar natijalari tahlili, muvaffaqiyatli yakunlangan holatlar ulushi, qo'shimcha aralashuvlar zarurati, shuningdek, UOK dan keyingi davrda bemorlarni kuzatuv asosiy jihatlari, jumladan, antibakterial terapiya, buyrak va siydik pufagi faoliyatini nazorat qilish, asoratlarni va ularning oldini olish masalalari ko'rib chiqiladi.

4.3.1. Dastlabki operatsiya muvaffaqiyati va takroriy aralashuvlar zaruriyati

Tadqiqot doirasidagi guruhda 120 nafar bemorga jarrohlik amaliyoti bajarilgan. Asosiy usul sifatida 73 nafar bolaga (60,8%) uretra orqa klapanining transuretral ablatsiyasi bajarilgan. 47 nafar bemorda (39,2%) obstruktsiya qaytalanishi, striktura yoki ablatsiyaning yetarli bo'lmagan samaradorligi sababli takroriy operatsiyalar zarur bo'lgan.

Og'ir shakldagi UOK bo'lgan bemorlarda qo'shimcha drenajlash usullari ham qo'llanilgan: vezikostomiya (shu jumladan Mickey) – 15 bemor (12,5%), ureterostomiya – 14 bemor (11,7%), stentlash (Double J) – 18 bemor (15,0%). Jarrohlik davolash natijalari 3.3.1.1-jadvalda berilgan.

4.3.1.1-jadval

UOK bo'lgan bolalarda jarrohlik davolash natijalari

Davolash usuli	Bemorlar soni (n=120)	Dastlabki operatsiyaning muvaffaqiyati (%)	Qayta operatsiyaga ehtijoj (%)
Transuretral ablyatsiya	73	60,8%	39,2%
Vezikostomiya	15	100%	12,5%
Uretrostomiya	14	85,7%	14,3%
Double J stent	18	88,9%	5,6%


4.3.1.1-jadvaldan ko'rinadiki, vezikostomiya usuli dastlabki operatsiya muvaffaqiyati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga (100%) ega, biroq bu vaqtincha choradir va keyinchalik qo'shimcha aralashuvlar talab etiladi. Ureterostomiya usuli ham samaradorlik bo'yicha yuqori natijaga – 85,7% ga ega. Eng barqaror usullardan biri Double J stent bo'lib, uning samaradorligi 88,9% ni tashkil etdi. Transuretral ablatsiya hollari (60,8%)da 39,2% bemorda qo'shimcha aralashuvlar zarur bo'lgan.

Takroriy operatsiyalar eng ko'p transuretral ablatsiya usulida (39,2%) qayd etilgan, bu esa obstruktsiya qaytalanishi, striktura shakllanishi va klapan to'liq olib

tashlanmaganligi bilan bog‘liq. Stentlash usulida esa takroriy aralashuv eng past – 5,6% ni tashkil etgan, bu metodning ishonchliligini ko‘rsatadi. Vezikostomiya esa vaqtinchalik yechim bo‘lib, 12,5% hollarda keyingi davolashni talab qilgan.

4.3.2. Operatsiyadan keyingi asoratlarning uchrash nisbati

Operatsiyadan keyingi asoratlarning 47 nafar bemorda (39,2%) kuzatilgan. Eng ko‘p uchraydiganlari qovuq-siydik nayi reflyuksi (55,8%) va siydik yo‘llari infeksiyasi (28,6%) bo‘lib, bu holat operatsiyadan keyingi kuzatuv va antibakterial profilaktikaning muhimligini ko‘rsatadi (3.3.2.1-diagramma).



4.3.2.1-diagramma. UOK bo‘lgan bolalarda operatsiyadan keyingi asoratlarning uchrashish nisbati

Qovuq-siydik nayi reflyuksining (55,8%) eng yuqori uchrashish nisbati operatsiyagacha bo‘lgan uzoq davomli obstruksiya bilan bog‘liq bo‘lib, bu erta tashxis qo‘yish va o‘z vaqtida jarrohlik davolash zarurligini tasdiqlaydi. Siydik yo‘llari infeksiyalari (28,6%) ko‘proq kateter yoki stent o‘rnatilgan bemorlarda rivojlangan bo‘lib, bu holat operatsiyadan keyingi sinchkov kuzatuvni talab qiladi.

Shu tariqa, qovuq-siydik nayi reflyuksi UOK bo‘yicha o‘tkazilgan jarrohlik davolashdan keyingi eng tez-tez uchraydigan asorat bo‘lib qolmoqda. Striktura va obstruksiya qaytalanishi xavfi dinamik kuzatuvni talab qiladi. Shuningdek, siydik

yo'llari infeksiyalari ko'proq drenaj tizimlari o'rnatilgan bemorlarda rivojlanadi, bu esa antibakterial profilaktikaning muhimligini tasdiqlaydi.

Jarrohlik davolash samaradorligini baholash uchun operatsiyadan oldin va keyin buyrak funksiyasi asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi (4.3.2.1-jadval).

4.3.2.1-jadval

UOK bo'lgan bolalarda operatsiyadan oldin va keyin buyrak funksiyasining asosiy ko'rsatkichlari

Kursatkich	Operatsiyadan oldin	Operatsiyadan so'ng
Kreatinin (mkmol/l)	150 ± 42	85 ± 28*
Mochevina (mkmol/l)	12,7 ± 3,5	7,1 ± 2,8
Qoldiq siydik miqdori (ml)	60 ± 20	20 ± 10

Izoh: *p<0,05 qiymatlar Paired Samples Statistics asosida statistik ahamiyatli ekanini bildiradi.

Operatsiyadan so'ng buyrak funksiyasining sezilarli darajada yaxshilanishi kuzatildi, bu kreatinin darajasining pasayishi (p<0,05) bilan tasdiqlangan. Qolgan siydik hajmi 3 martadan ortiq kamaydi, bu esa urodinamikaning normallashtirilganligidan va reflyuksli-nefropatiya xavfining kamayganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, obstruktsiya bartaraf etilganidan so'ng buyrak funksiyasi sezilarli darajada yaxshilandi. Kreatinin va siydikda azot almashinuvi mahsulotlarining dinamikasi jarrohlik aralashuv samaradorligini tasdiqlaydi. Qolgan siydik hajmining 3 martadan ortiq kamayishi esa ikkilamchi asoratlar xavfini pasaytirgan.

Jarrohlik davolash samaradorligini baholash uchun operatsiyagacha va keyingi bemor shikoyatlari dinamikasi tahlil qilindi. Tadqiqot guruhida tana haroratining ko'tarilishi, siydik yo'llari infeksiyalari (SYI) va siydik ajratishning uzilishli bo'lishi kabi simptomlar sezilarli darajada kamaygani kuzatildi (4.3.2.2-jadval).

Bemorlarning operatsiyagacha va keyingi asosiy shikoyatlari (n=120)

Davo usuli	Tanadagi harorat		SYI		Uzilib-uzilib siydik chiqarish	
	avval	so'ng	avval	so'ng	avval	so'ng
Kesish	52 (71,2%)	4 (5,48%)*	45 (61,6%)	2 (2,74%)*	64 (87,7%)	7 (9,59%)*
Vezikostomiya	13 (86,7%)	1 (6,67%)*	12 (80%)	-	14 (93,3%)	1 (6,67%)*
Ureterostomiya	13 (92,9%)	2 (14,3%)*	12 (85,7%)	1 (7,1%)*	14 (100%)	1 (7,1%)*
Stentlash	15 (83,3%)	1 (5,54%)*	14 (77,8%)	2 (11,1%)*	15 (83,3%)	1 (11,1%)*

Izoh: Farqlar ahamiyati oldin va keyin ishonchli bo'lib, $P < 0,001$ darajasida aniqlangan.

Operatsiyagacha eng ko'p uchragan simptomlar quyidagilar bo'lgan: siydikning uzilishli ajralishi (83,3%–100%), bu urokinamikaning buzilishi bilan bog'liq; siydik yo'llari infeksiyalari (61,6%–85,7%), siydik dimlanishi va qovuq-siydik nayi refluksi bilan bog'liq; tana haroratining ko'tarilishi (71,2%–92,9%), bu yallig'lanish jarayonlarining belgisi bo'lgan.

Shunday qilib, barcha davolash usullari simptomatikada sezilarli yaxshilanishga olib keldi ($p < 0,001$). Simptomlarning eng katta kamayishi vezikostomiya (SYI 80% → 0%) va klapani kesish (SYI 61,6% → 2,74%) holatlarida kuzatildi.

Ureterostomiyadan keyin 7,1% bemorda siydikning uzilishli ajralishi saqlanib qolgan bo'lib, bu holat keyingi nazoratni talab etgan.

Davolash samaradorligini aniqlovchi yana bir mezon siydikning tiniqligi o'zgarishi bo'ldi. Operatsiyagacha bemorlarning aksariyatida siydik loyqa bo'lgan, bu yallig'lanish jarayoni va dimlanish hodisalarining mavjudligini ko'rsatgan. Siydik sifatining eng yaqqol yaxshilanishi klapani kesish (50,7% → 84,85%) va vezikostomiya (53,3% → 83,3%) dan keyin qayd etilgan. Siydikning loyqaligining kamayishi urokinamikaning normallasuvi va yallig'lanish jarayonining pasayganligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, UOK bo'yicha jarrohlik davolash o'tkazilgan 120 nafar bemor tahliliga asoslanib shuni aniqlash mumkinki, asosiy davolash usuli transuretral ablatsiya hisoblanadi, biroq 39,2% holatda u qo'shimcha aralashuvni talab qilgan. Drenaj operatsiyalari (vezikostomiya, ureterostomiya, stent o'rnatish) og'ir shakllarda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi, bu esa siydik pufak ichki bosimining kamayishini va buyrak funksiyasining yaxshilanishini ta'minladi. Operatsiyadan keyingi tahlillar siydik yo'llari infeksiyasi chastotasining sezilarli kamayganligini (69,2% dan 40% gacha) va qolgan siydik hajmining kamayganligini (60 ± 20 ml dan 20 ± 10 ml gacha) ko'rsatdi.

Davolashning eng muhim natijalari quyidagilardan iborat bo'ldi: dastlabki operatsiyaning muvaffaqiyatli o'tgan holatlari 60,8%, takroriy aralashuv zarurati esa 39,2%. Vezikostomiya yoki ureterostomiya o'tkazilgan bemorlarda urokinamikaning eng sezilarli yaxshilanishi qayd etilgan. Double-J stentdan foydalanish esa obstruksiya va qovuq-siydik nayi reflyuksi (QSNR) qaytalanish xavfini minimallashtirish imkonini bergan.

4.3.2.2-jadval

UOK bo'lgan bemorlarda jarrohlik davolashdan oldin va keyin asoratlar dinamikasini tahlil qilish (n=73)

Klapanni kesish n=73			
	oldin	keyin	
Nefrastoma quyish	7 (9,6%)	-	
Nefrektomiya	-	-	
O'ngda megaureter	8 (10,96%)	5 (6,8%)	$\chi^2=0,75$ df=1 p>0,05
Chapda megaureter	30 (41,1%)	5 (6,8%)	$\chi^2=23,5$ df=1 p<0,001
SBK	21(28,7%)	5 (6,8%)	$\chi^2=11,9$ df=1 p<0,001
Vezikostoma n=15			
Nefrostomiya	2 (13,3%)	-	
Nefrektomiya	-	-	
O'ngdan megaureter	2 (13,3%)	1 (6,7%)	$\chi^2=0,26$ df=1 p>0,05
Chapdan megaureter	6 (40%)	1 (6,7%)	$\chi^2=4,68$ df=1 p<0,05
SBK	5 (33,3%)	1 (6,7%)	$\chi^2=1,9$ df=1 p>0,05
Uretrostoma n=14			
	avval	keyin	
Nefrostomiya	2 (14,3%)	-	
Nefrektomiya	-	-	
O'ngdan megaureter	1 (7,1%)	1 (7,1%)	
Chapdan megaureter	6 (42,9%)	1 (7,1%)	$\chi^2=4,76$ df=1 p<0,05
SBK	5 (35,7%)	3 (21,4%)	$\chi^2=0,17$ df=1 p>0,05

Stentlash n=18			
	avval	keyin	
Nefrostomiya	2 (11,1%)	-	
Nefrektomiya	-	-	
O'ngdan megaureter	1 (5,6%)	1 (5,6%)	
Chapdan megaureter	8 (44,4%)	1 (5,6%)	$\chi^2=7,25$ df=1 p<0,01
SBK	6 (33,3%)	2 (11,1%)	$\chi^2=2,57$ df=1 p>0,05

Izoh: Jadvalda o'tkazilgan χ^2 (chi-kvadrat) tahlil natijalari asosida operatsiyagacha va keyingi davrdagi ko'rsatkichlar orasida statistik ahamiyatga ega farqlar aniqlangan (p<0,05 va p<0,01).

Uretra orqa klapanlari (UOK) bo'yicha turli jarrohlik aralashuv usullarining samaradorligini baholash uchun megaureter, nefrostomiya, nefrektomiya va surunkali buyrak kasalligi (SBK) rivojlanishi kabi asoratlar dinamikasi tahlil qilindi. Taqqoslash klapani kesish, vezikostomiya, ureterostomiya va stent o'rnatilgan asosiy bemor guruhlari o'rtasida olib borildi.

Klapani kesish

Endoskopik klapan ablatsiyasini boshdan kechirgan bemorlarda bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy dinamika kuzatildi:

Chap tomondagi megaureter chastotasi ishonchli darajada kamaydi: 41,1% dan 15,2% gacha ($\chi^2=15,3$, df=1, p<0,001).

O'ng tomondagi megaureter chastotasi ham kamaydi, biroq o'zgarishlar statistik jihatdan ishonchli emas edi ($\chi^2=0,61$, p>0,05).

Shu bilan birga, SBK chastotasi 16,1% dan 28,8% gacha oshdi ($\chi^2=4,09$, df=1, p<0,001), bu holat patologiyani kech aniqlanishi va dastlabdan og'ir nefron zararlanishi bilan izohlanishi mumkin.

Vezikostomiya

Vezikostomiya (shu jumladan Mickey-tugmasi qo'llanilgan variant) o'tkazilgan bemorlarda ham holatning qisman yaxshilanishi kuzatildi:

Chap tomondagi megaureter chastotasi 40% dan 16,7% gacha kamaydi ($\chi^2=12,2$, p<0,001).

SBK chastotasi 16,7% dan 33,3% gacha oshdi ($\chi^2=6,7$, p<0,001), yuqori siydik yo'llarining qisman bo'shatilganiga qaramasdan, bu holat ushbu bolalar toifasida progressiv nefroskleroz xavfi yuqoriligini ko'rsatadi.

Ureterostomiya

Mazkur usul ham ayrim ijobiy natijalarni ko'rsatdi:

Chap tomondagi megaureter chastotasi 42,9% dan 14,3% gacha kamaydi ($\chi^2=15,1$, $p<0,001$).

Shunga qaramay, SBK chastotasi yuqori bo'lib qolmoqda (avval – 75%, keyin – 28,6%), va statistik jihatdan ishonchli kamayish qayd etilgan bo'lsa-da ($\chi^2=41,7$, $p<0,001$), xavf darajasi sezilarli darajada saqlanib qolmoqda.

Double J stent o'rnatilishi

Chap tomondagi megaureter chastotasi 44,4% dan 22,2% gacha kamaydi ($\chi^2=20,4$, $p<0,001$).

Nefrektomiya ehtiyoji biroz oshgan (5,6% dan 14,3% gacha), biroq bu o'zgarishlar statistik jihatdan ishonchli edi ($\chi^2=4,22$, $p<0,05$).

SBK chastotasi 33,3% dan 22,2% gacha kamaygan, biroq o'zgarishlarning ishonchliligi statistik chegaraga yaqin edi ($\chi^2=3,07$, $p<0,05$).

Asoratlar dinamikasi tahlili shuni ko'rsatdiki, anatomik o'zgarishlarning eng yaqqol yaxshilanishi (xususan, megaureterning kamayishi) klapani kesish va stent o'rnatish guruhlarida kuzatildi. Shu bilan birga, operatsiyadan so'ng SBK chastotasining oshishi ayniqsa vezikostomiya va ureterostomiya o'tkazilgan bemorlarda yaqqol namoyon bo'ldi, bu esa erta tashxis, prenatal kuzatuv va o'z vaqtida jarrohlik tuzatish zarurligini ta'kidlaydi.

IV-bob bo'yicha xulosalar

UOK bo'lgan bolalarda jarrohlik davolash va siydik derivatsiyasini ta'minlash usullarini tahlil qilish quyidagilarni ko'rsatdi:

Yangi tug'ilgan UOK bemorlarida siydik derivatsiyasini ta'minlash usulini tanlash obstruktsiya darajasi, qovuq-siydik nayi refluyksining mavjudligi, buyrak parenximasi holati va bemorning umumiy holatiga kompleks baho asosida amalga oshirilishi kerak.

Klinik amaliyotga joriy etilgan siydik pufagini doimiy drenajlashning original usuli (patent № IAP 7813) yuqori ishonchlilik, bajarishdagi qulaylik va asoratlar chastotasining pastligi bilan ajralib turdi.

Mazkur usul klapanlarni ablatsiya qilishgacha siydik pufagidagi bosimni samarali nazorat qilish, urokinamikani yaxshilash va yuqori siydik yo'llarining zararlanishini oldini olish imkonini berdi.

Taqqoslov tahlil shuni ko'rsatdiki, taklif etilgan usul siydikni vaqtincha derivatsiyasining an'anaviy usullariga nisbatan samaradorlik va xavfsizlik bo'yicha ustunlikka ega.

XOTIMA

Uretra orqa klapani (UOK) bolalar orasida siydik pufagi chiqish yo'llarining obstruksiyasiga eng ko'p uchraydigan sabab bo'lib, yangi tug'ilganlarda hayot uchun xavfli tug'ma nuqsonlardan biri hisoblanadi. Bu holat 32% bemorlarda bolalik va o'smirlik davrida surunkali buyrak kasalligining rivojlanishiga olib keladi. UOK bilan og'rigan bolalarning 32–40% gacha bo'lgan qismida buyrak faoliyatining izchil pasayishi kuzatiladi, ulardan muhim qismi terminal bosqichdagi SBKga duchor bo'ladi va bu buyrakni almashtirish terapiyasi yoki buyrak ko'chirib o'tkazishni talab qiladi. Prenatal tasvirlash usullaridagi (shu jumladan, ultratovush va MRT) yutuqlarga qaramay, ushbu usullarning aniqlik darajasi va bashorat berish qiymati hanuz cheklangan. Bundan tashqari, vaqtinchalik siydik derivatsiyasini ta'minlovchi turli usullar, klapanlarni endoskopik ablatsiya qilish vaqti, shuningdek, UOK bo'lgan bolalarda antixolinergik terapiyaning maqsadga muvofiqligi bo'yicha bahslar hanuz davom etmoqda.

Uretra orqa klapanining antenatal tashxisi nuqsonni erta aniqlashda muhim bosqich bo'lib, yangi tug'ilgan chaqaloqni boshqarish taktikasi, shu jumladan, jarrohlik tuzatish usulini tanlash imkonini berdi. Antenatal belgilar darajasiga, siydik derivatsiyasi tizimidagi o'zgarishlar xususiyatiga va homila holatiga qarab, jarrohlik davolash taktikasi farqlanadi. Prenatal tashxisning asosiy afzalligi – UOK bilan og'rigan bemorlarni markazlashtirish va ko'p yo'nalishli yondashuvdan foydalanish imkoniyatining mavjudligidir.

UOK bilan og'rigan bolalarni boshqarish – bu antenatal aniqlashdan boshlanib, klapani ablatsiya qilish, so'ngra siydik pufagi va buyraklar faoliyatini nazorat qilish va boshqarish bosqichlarini o'z ichiga oluvchi uzluksiz jarayondir.

Hatto klapaning muvaffaqiyatli ablatsiyasidan so'ng ham, bemorlarning sezilarli qismida quyi siydik yo'llari disfunktsiyasi yuzaga keladi, bu buyrak faoliyatining yanada pasayishiga olib kelishi mumkin. Urokinamik tadqiqotlar orqali siydik pufagi disfunktsiyasining muayyan turi erta bosqichda aniqlanishi mumkin bo'lib, bu to'g'ri davolash rejasini tuzishga imkon beradi. Bundan tashqari, urokinamika nazorat paytida siydik pufagi faoliyatidagi keyingi o'zgarishlarni

aniqlashga yordam beradi, bu esa zarur bo'lsa, davolash taktikasini o'zgartirish imkonini yaratadi. Agar konservativ terapiya siydik pufagini bo'shatish buzilishlarini bartaraf eta olmasa, davriy kateterizatsiyani – transuretral yo'l bilan yoki kateterizatsiyalanadigan kanal orqali boshlash zarur bo'ladi. Siydik pufagini kattalashtirish muayyan guruh bemorlar uchun tanlov imkoniyati sifatida mavjud bo'lishi lozim.

Tadqiqotga uretra orqa klapanini tashxisi tasdiqlangan 120 nafar erkak jinsli bemorlar kiritilgan bo'lib, ularga kompleks klinik-laborator, instrumental va nurlanish tekshiruvlari o'tkazilgan.

Bemorlar siydik derivatsiyasini ta'minlash usuliga ko'ra ikki guruhga bo'lingan: transuretral klapan ablatsiyasi va vaqtinchalik siydik derivatsiyasini ta'minlash (vezikostomiya, ureterokutaneostomiya, DJ-stent, taklif etilgan doimiy drenajlashning original usuli).

Siydik yo'llari holati va buyrak faoliyatini baholashda quyidagi usullardan foydalanilgan: UTT, MTsUG, ekskretor urografiya, radioizotopli nefrostsintigrafiya va endoskopik usullar.

Konservativ davolash simptomatikani yaxshilash va buyrak faoliyatini saqlab qolishga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga olgan. Jarrohlik davolash, shu jumladan klapani kesish va vezikostomiya (Mickey vezikostomiyasini o'z ichiga olgan), uretostomiya va stent o'rnatish, kasallik og'irligiga va bemorning holatiga qarab qo'llanilgan. Operatsiyadan keyingi kuzatuv klinik, laborator va instrumental usullar orqali davolash samaradorligi va bemor holatini baholashni o'z ichiga olgan.

UOK bo'yicha ultratovush belgilarining homiladorlik davridagi aniqlangan gestatsion haftasi nuqson og'irligini prognoz qilish va homiladorlikni yuritish hamda tug'ruqdan keyingi davolash taktikasini belgilashda muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, «kalit teshigi» belgisi UOK uchun eng spetsifik marker hisoblanib, uretra orqa klapanining sezilarli kengayishi va siydik pufagi devorlarining qalinlashishini aks ettiradi. Gidronefroz va megaureter siydik yo'llarining obstruksiyasi oqibatida yuzaga keladigan ikkilamchi o'zgarishlar bo'lgan. 3–4-darajadagi (SPU bo'yicha) yaqqol gidronefroz aniqlangan bemorlarning 42%ida tug'ruqdan so'ng yuqori siydik

yo'llarini dekompressiya qilish uchun vezikostomiya zarur bo'lgan. 13 nafar (38,2%) homilada amniotik suyuqlik kamaygan (oligogidramnion) holati qayd etilgan bo'lib, bu holatlarning 82%ida buyrak chiqaruv tizimining og'ir obstruksiyasi va o'pka gipoplaziyasi rivojlanish xavfi bilan bog'liq bo'lgan. Mavjud oligogidramnion bo'lgan yangi tug'ilganlarning 60%ida tug'ruqdan so'ng darhol siydik pufagini kateterizatsiya qilishga to'g'ri kelgan.

Shu tariqa, antenatal belgilarni aniqlash muddati o'rtacha homiladorlikning 22 dan 28 haftasigacha bo'lgan davrda farqlangan. Eng erta aniqlanadigan belgi — bu "kalit teshigi" belgisi bo'lib, meraureter va 3–4-darajadagi gidronefroz odatda kechroq aniqlangan. Aynan "kalit teshigi" belgisi uretra orqa klapanining erta transuretral ablatsiyasi uchun asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Gidronefroz va megaureter yuqori obstruksiya xavfi bilan bog'liq bo'lib, drenaj operatsiyalarini (vezikostomiya, stent o'rnatish) talab qiladi. Oligogidramnion (amniotik suyuqlik yetishmovchiligi) UOKning og'ir shakllari va buyrak yetishmovchiligi xavfining yuqoriligini bildiruvchi prognoz belgisidir, bu esa jarrohlik davolashga individual yondashuvni talab etadi.

Jarrohlik davolashdan asosiy maqsad — siydikning normal chiqishini tiklash va buyrak shikastlanishining oldini olishdir. Usulni tanlash patologiya darajasi va turi, shuningdek, bemorning umumiy holatiga bog'liq edi. Jarrohlik tuzatish usulini tanlash quyidagi omillarga asoslandi: obstruksiya darajasi, siydik pufagi va yuqori siydik yo'llaridagi hamroh o'zgarishlar. Transuretral ablatsiya yuqori siydik yo'llarida yaqqol o'zgarishlar bo'lmaganda tanlov usuli bo'lib xizmat qilgan. Vezikostomiya va uretostomiya esa urodinamik buzilishlar aniq bo'lganda qo'llanilgan. Double-J stentni o'rnatish esa barqaror obstruksiya va pufak-muyulchak refluyksi (QSNR) xavfi yuqori bo'lgan hollarda talab etilgan.

Shunday qilib, antenatal ma'lumotlar, klinik belgilarning ifodalanishi (siydik tutilishi, tez-tez uchraydigan siydik yo'llari infeksiyalari, dizuriya), laborator ko'rsatkichlar (kreatinin, mochevina, ECHT, leykotsituriyadan iborat), ultratovush va urodinamik natijalar (qolgan siydik miqdori, gidronefroz, megaureter), QSNR

darajasi hamda bemor yosh xususiyatlariga asoslangan diferensial yondashuv davolash samaradorligini oshirish va asoratlarni sonini kamaytirish imkonini berdi.

Uretra orqa klapanini (UOK) jarrohlik yo'li bilan davolash bir necha bosqichdan iborat bo'lib, bemorni tayyorlashdan boshlab operatsiyani o'tkazishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Aniq usulni tanlash bemorning holatining og'irligi, hamroh patologiyalar va urodinamik o'zgarishlarga bog'liq edi.

Siydik pufagini drenaj qilish UOK bo'lgan bolalarda transuretral ablatsiya oldidan tayyorlov bosqichining muhim elementi hisoblangan. Bu usulning asosiy maqsadi — vaqtinchalik urodinamikani tiklash, pufak ichidagi bosimni pasaytirish va siydik derivatsiyasi yo'llarining obstruksiyasi bilan bog'liq keyingi asoratlarning oldini olish bo'lgan. Ushbu bosqich ayniqsa buyrak va siydik pufagi faoliyati jiddiy buzilgan bemorlar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Uretra orqa klapanining transuretral ablatsiyasi mazkur patologiyani boshlang'ich davolash uchun afzal usul bo'lib, u endoskopik yo'l bilan bajarilgan. Intervensiyaning asosiy maqsadi — normal urodinamikani tiklash va buyrak yetishmovchiligi rivojlanishining oldini olishdan iborat bo'lgan. Klapaning birlamchi ablatsiyasi ko'pchilik hollarda samarali bo'lishiga qaramay, deyarli 40% bemorlarda takroriy aralashuv va qo'shimcha drenaj talab etilgan. Bu esa birlamchi operatsiyadan so'ng bemor holatini sinchiklab kuzatish va individual yondashuvni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Siydikni derivatsiyasi UOK bo'lgan bolalarda davolashning muhim bosqichi bo'lib, ayniqsa yaqqol obstruksiya, qolgan siydik miqdorining sezilarli ortishi yoki pufak ichidagi bosim yuqori bo'lgan hollarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Tadqiq etilgan 120 nafar boladan iborat guruhda siydik derivatsiyasi kasallik holati og'irligi va klinik vaziyatga qarab turlicha usullarda amalga oshirilgan. Asosiy yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga olgan: vezikostomiya, uretostomiya va uretral stent o'rnatish.

Vezikostomiya siydik derivatsiyasi yo'llarida og'ir obstruksiyasi bo'lgan bolalarda holatni barqarorlashtirishda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Ushbu usul pufak ichki bosimini pasaytirish, urodinamikani yaxshilash va buyraklarning

keyingi shikastlanishining oldini olish imkonini berdi. Stoma sohasi infeksiyalari kabi asoratlarning mavjudligiga qaramasdan, bu usul UOK ning og‘ir shakllarini davolashda asosiy bosqich sifatida qolmoqda. Shuningdek, Mickey vezikostomiya uretro orqali davriy kateterizatsiya qilolmaydigan ayrim bemorlar uchun foydalidir (og‘riq, yosh va hokazo sabablar bilan). Bemorlar va ularning oilalari bu usulni osonlik bilan qabul qiladilar, chunki u kosmetik jihatdan maqbul va texnik jihatdan sodda hisoblanadi.

Ureterostomiya uretra va UOKning to‘liq obstruktsiyasi bo‘lgan bemorlarda holatni barqarorlashtirishning muhim bosqichi hisoblangan. U pufak ichki bosimini pasaytirish, urodinamikani tiklash va buyrak shikastlanishining oldini olishni ta‘minlagan. Yuqori infeksiya va chandiqlik o‘zgarishlari xavfiga qaramasdan, boshqa siydik derivatsiyasi usullarini qo‘llash imkoni bo‘lmaganda ushbu usul samarali bo‘lib qolmoqda. Erta tashxis qo‘yish va davolash usulini individual tanlash asoratlarni kamaytirish va uzoq muddatli natijalarni yaxshilash imkonini beradi.

Double-J stent har 1–2 oyda muntazam almashtirilishi talab etilgan, bu uning inkruztatsiyasi, siljishi va obstruktsiyasini oldini olish, shuningdek siydik derivatsiyasi yo‘llarining normal faoliyatini saqlab qolish uchun zarur edi. Bu ma‘lumotlar ushbu usulning urodinamikani tiklash va UOK bo‘lgan bemorlarda buyrak yetishmovchiligi rivojlanish xavfini kamaytirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

UOK bo‘lgan bolalarda jarrohlik davolash samaradorligi o‘z vaqtida tashxis qo‘yilishi, to‘g‘ri operatsiya taktikasini tanlash va bemorlarni operatsiyadan keyin kuzatish bilan bog‘liq.

Biz o‘tkazilgan operatsiyalar natijalarini, muvaffaqiyatli natijalar chastotasini, qayta aralashuv ehtiyojini tahlil qildik, shuningdek UOK bo‘yicha jarrohlik davolashdan keyingi bemorlarni yuritishning asosiy jihatlari — antibakterial terapiya, buyrak va siydik pufagi faoliyatini nazorat qilish, asoratlar va ularning oldini olishni ko‘rib chiqdik.

Davolashning yaqin muddatli natijalari individual yondashuv asosidagi kompleks aralashuvdan so'ng bolalarda siydik tizimi funksional ko'rsatkichlarining ishonchli darajada yaxshilanishini ko'rsatdi.

Patentlangan drenaj usuli qo'llanilgan bemorlar guruhida buyrak funksiyasining yaxshiroq saqlanishi va vaqtinchalik siydik derivatsiyasining boshqa usullari bilan solishtirganda kamroq asoratlar aniqlangan.

Uzoq muddatli kuzatuvlar klapanlarni o'z vaqtida ablatsiya qilish va zarurat bo'lsa, medikamentoz terapiya (oksibutinin) qo'llagan holda urodinamik nazoratning ahamiyatini tasdiqladi.

Erta tashxis, adekvat siydik chiqishini ta'minlash, o'z vaqtida jarrohlik aralashuvi va dinamik kuzatuvni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv UOK bo'lgan bolalarda nefro-uurologik prognozni sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Shunday qilib, UOK bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarda siydik derivatsiyasi usulini tanlash quyidagi omillarni har tomonlama baholashga asoslanishi lozim: obstruktsiya darajasi, pufak-muyulchak reflyuksining mavjudligi, buyrak parenximasi holati va bemorning umumiy holati.

Klinik amaliyotga joriy etilgan siydik pufagini doimiy drenaj qilishning original usuli (patent № IAP 7813) yuqori ishonchlilik, bajarishdagi soddalik va kam asoratlar chastotasini ko'rsatdi.

Aniqlandi: ushbu usul klapanlar ablatsiyasigacha pufak bosimini samarali nazorat qilish, urodinamikani yaxshilash va yuqori siydik yo'llarining zararlanishining oldini olish imkonini beradi.

Taqqoslovchi tahlil ko'rsatdiki, taklif etilgan usul vaqtinchalik siydik derivatsiyasining an'anaviy usullariga nisbatan samaradorligi va xavfsizligi bo'yicha ustunlikka ega.

XULOSALAR

1. Antenatal UZI natijalariga ko‘ra, UOK aniqlangan homilalarning 64,7 foizida megatsistis, 47 foizida siydik o‘tkazgichlar kengayishi va 39 foizida “kalit teshigi belgisi” aniqlangan. Ushbu belgilar postnatal davrda obstruktsiya xavfi yuqoriligi va neonatologik davrda jarrohlik aralashuv zarurligi bilan bog‘liqdir.

2. Siydik derivatsiyasini ajratish usullarining (vezikostomiya, ureterostomiya, DJ-stent) taqqoslanishi natijasida, patentlangan doimiy drenajlash usulidan foydalanilganda eng past asoratlar ko‘rsatkichi (10 foizdan kam) va eng yuqori urokinamikani tiklash samaradorligi (91,7 foiz) qayd etilgan.

3. UOK bo‘lgan bolalarda siydik pufagini doimiy drenajlash bo‘yicha taklif etilgan metodikasi bajarishning soddaligi, yaxshi ko‘tarilishi, yallig‘lanishli asoratlar pastligi va urokinamik ko‘rsatkichlar hamda laborator tahlillar ($p < 0,05$) bo‘yicha ishonchli ijobiy o‘zgarishlarni namoyon qilgan.

4. Klapanlarni ablatsiya qilishdan so‘ng 6 oylik kuzatuv davomida individual tanlangan siydik derivatsiyasi usuli qo‘llangan bemorlarning 85 foizida buyrak funksiyasi saqlangan. Siydik yo‘llari infeksiyalari qaytalanishining eng past ko‘rsatkichi (8,3%) patentlangan metodika qo‘llangan guruhda qayd etilgan.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Homilada infravezikal obstruktsiyadan gumon qilinganda, homilador ayollarda antenatal ultratovush skriningi megatsista, siydik naylarining kengayishi va uretra orqa klapanining “kalit teshigi” belgilari bahosini o‘z ichiga oladi. Bu UOKni o‘z vaqtida aniqlash va postnatal davr uchun yuritish rejasini belgilash imkonini beradi.
